

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**«SIYOSATSHUNOSLIK, O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK
JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANIDAN»**

(uslubiy qo'llanma)

**(SamQXI, Ilmiy kengashining 2012 dagi sonli yig'ilish qarori bilan
(bayonnoma №____) nashrga tavsiya etilgan)**

Samarqand – 2012 y

Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan uslubiy qo'llanma. Samarqand.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin kun tartibidagi dastlabki vazifa qilib, sobiq sovet totalitar tuzumidagi ma'muriy-boshqaruvdan voz kechib, O'zbekiston Respublikasida demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqaroliq jamiyatini qurish yo'li tanlandi. Shu maqsadda siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda keng ko'lamli islohatlar boshlandi.

Ta'lim sohasida, jumladan ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida avvalari faqat kommunistik mafkura asoslarini yoshlar ongiga singdiruvchi KPSS tarixi, ilmiy ateizm kabi fanlardan voz kechilib umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan angi fanlar, jumladan Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani o'qitila boshlandi. Mustaqillik «mevasi» hisoblangan ushbu fan yoshlarni siyosiy tafakkurini, siyosiy ongini o'stirishga, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatni mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradi.

Ushbu fan bo'yicha bugungi kunda ko'plab o'quv adabiyotlari nashr etilayotgan bo'lib, ushbu uslubiy qo'llanma ham talabalarga fan yuzasidan olinadigan bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi degan umiddamiz. Ushbu uslubiy qo'llanma barcha yo'nalishda (mutaxassis ta'lim yo'nalishidan tashqari) ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, shuningdek undan o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu uslubiy qo'llanma «Gumanitar fanlar» kafedrasining majlisida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

t.f.n. K-o'qituvchi A.E.Toyirov

Mas'ul muharrir:

t.f.n. dots.O.Turg'unboev

Taqrizchilar:

f.f.n. dots. H.Rustamov

f.f.n. K.o'qituvchi A.Abdurazzoqov

«Ko'p asrlik taraximiz shuni ko'ratidiki, inson dunyoqarashini shakllanishida ma'rifatning xususan ijtimoiy fanlari o'rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi ularning barchasi odamning intellektual kamolatida katta ta'sir kuchiga ega»

I.A.Karimov

So'z boshi

O'zbekiston o'z milliy mustaqilligni qo'lga kiritgan keyin barcha sohalar kabi ta'lim sohasi jumladan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish borasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jabhada avvalari kommunistik mafkurani yoshlar ongiga singdirishga xizmat qiluvchi «Ilmiy ateizm», «KPSS tarixi» kabi fanlar o'qitilib, aksincha umuminsoniy qadriyatlarni o'ziga singdirgan. «Siyosatshunoslik», «dinshunoslik» kabi fanlar o'qitilmagan. «Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani mustaqillik «mevasi» hisoblanib, ushbu fan talabalarda siyosiy tafakkurni o'stirish, O'zbekiston va jahon siyosatini mohiyatini anglatish, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning mazmun-mohiyati va o'ziga xos tomonlarini singdirishga xizmat qiladi. Siyosiy hodisalarni oqilona va tanqidiy baholashda, to'g'ri siyosiy yo'lni tanlashda, mustaqil O'zbekistonda qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurishda, uni yoshlar ongiga singdirishda ushbu fanning o'rni va roli benihoya kattadir. Siyosatshunoslik - bu jamiyatning barcha qirralarida o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va oxir oqibatda insoniyatni noxush holatlardan, qiyinchiliklardan qutilish yo'lini ko'rsatadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, ma'ruzalarida hamda nutqlarida O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning nazariy-uslubiy, g'oyaviy, siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy asoslari ishlab chiqilgan. Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti o'quv kursini o'rganishga bag'ishlangan ushbu uslubiy qo'llanmada 15 ta mavzu qisqa, ammo atroflicha yoritib berilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma talabalarning ushbu fan yuzasidan oladigan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga talabalarning siyosiy tafakkuri, siyosiy ongini oshirishga, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning mazmun-mohiyati yoritishiga yordam beradi. Uslubiy qo'llanmada

talabalarining mavzuni o'zlashtirishi oson bo'lishi uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun tavsiyalar, mavzuga doir tayanch iboralar, adabiyotlar, savollar berilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanmada Prezident I.A.Karimov asarlari, ma`ruzalar, respublikamizning etuk jamiyatshunos olimlari tomonidan mustaqillik yillarida chop etilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, asarlaridan foydalanildi.

Ushbu uslubiy qo'llanma ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasligi shubhasiz, qo'llanma tuzilishi va mazmuni, sifatini ko'tarish bo'yicha sinchkov mutaxassislar bildirgan taklif va istaklarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Fanning o'rganish texnologiyasi:

- **o'qitish usullari:** ma`ruza, aqliy hujum, klaster, bumerang, munozara usullaridan foydalanish; jonli muloqot, Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti faniga oid siyosiy atamalarga izhorlar berish;

-**o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

-**o'rganish yo'nalishlari:** ma`ruza matni, Siyosatshunoslik, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti faniga oid slaydlar;

-**o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalari bilan ta'minlanish, texnik vositalardan unumli foydalanish;

-**monitoring va baholash:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov.

Pedagogik vazifalar:

-o'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning o'rni bilan tanishtirish:

-o'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish;

-fan sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

-o'qitish texnologiyasining rivojlantirish istiqbollari tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

- fanning nomlanish va vazifasini belgilash;
- faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish:
- o'quv fanining umumiy va tashkiliy tuzulmari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;
- nazariy bilimlarning to'laligi, tizimlilik, amaliyligi;
- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shaklangan ko'nikmalardan foydalana olish;
- kursning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi.

Ma`ruzalarning xronalogik kartasi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirishish-15 daqiqa

-o'qituvchining faoliyati: tayyorgarlikni tekshirish, fanga doir kerakli manbalar haqida ma`lumot berish, ma`ruza haqida tushuncha berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma`lumot berish dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushunchalar berish;

-talabaning faoliyati: darsga tayyorgarligi, ma`ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishishi (talabalar soni, o'quv qllanmalar va ko'rgazmali qurollar).

-uslublar, shakllar, usullar: yuriqnoma, oldindan so'rash, topshiriq kartochkalari.

2-bosqich. Asosiy qism-55 daqiqa

-o'qituvchi faoliyati: mavzuni yoritishga kirishish, o'tgan mavzularni takrorlash, ma`ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olishni ta`kidlash, mavzu rejalarining har birigi alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, bumerang usullaridan foydalanish, jonli muloqot, siyosiy atamalarga izohlar berish, ma`ruza matnini o'qish mobaynida slaydlar orqali atroflicha tushunchalar berish.

-talabaning faoliyati: bilimlarning mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar, bo'yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- uslublar shakllar, usullar: oldindan so'rash, blits-so'rov, aqliy hujum, bumerang uslublaridan foydalanish.

3 – bosqich. Yakunlovchi qism - 10 daqiqa

- o'qituvchi faoliyati: mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash.

- talabaning faoliyati: o'tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo'l quyilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, mustaqil ish mavzusini yozib olish.

- uslublar, shakllar, usullar: guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1-mavzu: SIYOSATSHUNOSLIK FANINING SIYOSIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

Reja:

1. Siyosatshunoslik fani predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Siyosatshunoslik fani qonun va tushunchalari.
3. Mustaqillik va O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining shakllanishi va rolining oshib borishi.

1. Politologiya (siyosatshunoslik) – (lotincha – davlatni boshqarish san`ati, ta`limot, yoki grekcha-polis-davlat degan ma`noni bildiradi) – davlat ishlarida qatnashishi, davlat, faoliyatining formalarini, vazifalarini, mazmunini aniqlash demakdir. Siyosatshunoslik sohasiga davlat tuzilishi, mamlakatni boshqarish, sinflarga rahbarlik qilish, partiyaviy kurash va boshqa masalalar kiradi. Unda sinflarning tub manfaatlarini o'z ifodasini topadi. Siyosatshunoslik shuningdek, millatlar o'rtasidagi va davlatlar o'rtasidagi (tashqi siyosat) munosabatlarni ham ifodalaydi. Demak, siyosat tushunchasi millatlar, xalqlar va elatlar, ijtimoiy guruhlar, sinflarning davlatga bo'lgan munosabati orqali ifodalanadi. Chunki davlat bu ijtimoiy guruhlar, orasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi kuch sifatida faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun siyosat yuritishimizdagi eng muhim va mohiyatli yo'nalish-davlat hokimiyatini qurish deb, tushunamiz.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, siyosatshunoslik fanini mavzuini aniqlashimiz mumkin. Albatta hozirgacha siyosatshunoslik faniga ta`rif berish turlichadir. Masalan; ba`zi adabiyotlarda siyosatshunoslik bu siyosiy hokimiyat to'g'risidagi fandir, deyisa ba`zilarida siyosatshunoslik – siyosat, siyosiy hayot, siyosiy faoliyat va siyosiy munosabatlar bilan bog'liq masalalarni, jamiyat, siyosiy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar mohiyatini, xususiyatlarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandir deb, berilgan¹.

«Siyosatshunoslik» faniga ta`rif berganda bir narsaga alohida e`tibor berish zarurki, Siyosatshunoslikning predmeti, uning mazmunini umumlashtirgan holda ifodalab berish shartidir. Uning predmeti mazmuniga mos kelish asosida ta`riflanishi lozim. «Siyosatshunoslik» fanining predmetini ifodalash jihatdan

¹Qarang: Politologiya asoslari. – Toshkent, 1992, b - 7.

umumiylik tomonlarga ham egadir. Shuning uchun «Siyosatshunoslik» fani masalalariga xos bo'lgan ana shu umumiy va farq qiluvchi jihatlarni hisobga olgan holda ularni uchta asosiy qismga bo'lish mumkin.

Birinchi qismga Siyosatshunoslikning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini ifoda qiluvchi masalalar kiradi; ikkinchi qismga siyosiy hayot va siyosiy munosabatlar masalalariga doir mavzular kiradi; uchinchi qismga esa jahon siyosati va xalqaro siyosiy munosabatlarga doir mavzular kiradi.

«Siyosatshunoslik» fanining asosiy vazifalariga: siyosiy hayotni nazariy bilish, tushuntirish, baholash, bashorat qilish, oqilona tashkil etish va hokazolar kiradi. «Siyosatshunoslik» fani o'z oldida turgan vazifalarni hal qilishda turli uslublardan foydalanadi. Bu uslublar asosan quyidagilardir: dialektik uslub jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni, umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir etish natijalariga asoslangan holda tahlil qilishiga asoslanadi; bioxeviorizm inglizcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib «xulq» ma'nosini anglatadi bu metodologiya asoschilari kuzatish va eksperiment usullariga muhim o'rin beradilar; tarixiylik usuli yordamida tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlari va davrlarida jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarda, jahon siyosatida ro'y bergan o'zgarishlarni o'zaro solishtiriladi, qiyos qilinadi va shu asosda muhim xulosalar ishlab chiqiladi; qiyosiy taqqoslash uslubi siyosiy jarayonlarda ro'y beradigan voqea hodisalarni o'zaro taqqoslash, ularni bir-biriga solishtirish asosida ilmiy xulosalar qilishni ko'zda tutadi; sotsiologik uslub esa-bu so'rov, tajriba o'tkazish statistik tahlil qilish va boshqalarga asoslanadi. Keyingi ikki uslub hozirgi vaqtda G'arbiy Evropa va AQSHda keng tarqalgan.

2. «Siyosatshunoslik» faning predmeti va mazmuni uning qonuniyatlari va kategoriyalari (yunoncha ko'osatma, guvohlik) orqali yanada kengroq ochib beriladi. Barcha siyosiy fanlar kabi siyosatshunoslik fani ham o'zining qonuniyatlari, kategoriyalariga egadir. Siyosatshunoslik fanining bu qonuniyatlari uning mohiyati va mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Albatta bu qonuniyatlar jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida amal qiladi. Shuning uchun ularning amal qilish xususiyatlariga qarab bu qonuniyatlar ba'zi maqola va darsliklarda uch guruhga bo'lib berilgan: Birinchi guruh siyosiy-iqtisodiy qonuniyatlar; ikkinchi guruh siyosiy-ijtimoiy qonuniyatlar; uchinchi guruh siyosiy-psixologik qonuniyatlar. Lekin «Politologiya» asoslari degan o'quv qo'llanmasida bu qonuniyatlar ikkita yirik

guruhga bo'lingan. Birinchisi; davlatlar ichki siyosiy hayotida amal qiladigan qonuniyatlar. Bunga sotsial-iqtisodiy, madaniy-tarbiyaviy masalalarni hal etish, jamiyatni rivojlantirishda siyosiy hokimiyat mexanizmidan samarali foydalanish, ijtimoiy hayotni demokratiyalashtirish, mamlakat taqdiriga dahldor masalalarni referendum orqali hal etish, jamiyatni inqiroz va tanglikka olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni bartaraf qilishda siyosiy vositalardan foydalanish kabi qonuniyatlar kiradi.

Ikkinchisi, xalqaro munosabatlar sohasida amal qiladigan siyosiy qonuniyatlardir. Bunga xalqlar va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning turli sohalarini tashkil etish va rivojlantirishda siyosatning kuchini hisobga olish, xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etishda siyosiy yo'llarni ishlab chiqish, siyosiy hokimiyatlar, siyosiy partiyalar, siyosiy tashkilotlar va harakatlar o'rtasidagi siyosiy hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda rivojlantirishi kabi qonuniyatlar kiradi². Fikrimizcha, hozirgi vaqtda butun dunyodagi davlatlarda bo'lib o'tayotgan siyosiy jarayonlar, voqealar, bu qonuniyatlarning haqiqatdan ham hayotiy ekanligi tasdiqlab turibdi.

Barcha siyosiy fanlar kabi siyosatshunoslik fani ham o'z kategoriyalariga ega. Bu kategoriyalar asosan quyidagilardan iboratdir: siyosat, siyosiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, siyosiy tizim, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiyalar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy harakat, siyosiy madaniyat, siyosiy va milliy munosabatlar, kadrlar siyosati, demokratiya, xalkaro munosabatlar va boshqalar.

3. Mustaqil O'zbekistonimizda siyosatshunoslik mustaqil fan sifatida endigina shakllanib kelmoqda. «Siyosatshunoslik» fanini o'qitish davlat dasturida ta'kidlanganidek, siyosiy ilm berish hozirgi davr kishisining siyosiy hayotda qatnashuvi va siyosiy madaniyatni shakllantirish, demokratik qadriyatlarga qatnashtirishning usullaridan biridir. Ta'limning oliy bosqichi siyosiy hodisalarning oqilona va tanqidiy baholashga, siyosiy yo'lni tanlashga qodir bo'lgan siyosiy bilimdon kishilarni tarbiyalashi kerak.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining o'qitish rejalariga «Siyosatshunoslik» fani kiritildi. Keyingi yillarda O'zbekistonda «Siyosatshunoslik» fanini o'rganish va o'qitish bo'yicha dastlabki natijalarga erishildi. Respublika Oliy Attestatsiya Komissiyasida bu

² Qarang: Politologiya asoslari. – Toshkent, 1992 y. – B. 8.

fan bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarni yozish va himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan Kengashlar tuzildi. Ayrim oliy o'quv yurtlarida «Siyosatshunoslik» fani bo'yicha o'quv qo'llanmalarni, o'quv dasturlari tuzildi, ko'plab ilmiy maqolalar chop etilmoqda.

«Siyosatshunoslik» fanining ijodiy rivojlantirishda va uni muhim, boy xulosalar bilan boyitishda mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, jumladan: «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» va boshqa asarlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Taniqli davlat arbobi va hozirgi davrning nodir siyosatchisi sifatida Prezident I.A.Karimov o'z asarlarida o'tish davrida jamiyatning siyosiy hayoti, uning rivojlanish qonuniyatlari, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, murakkab sharoitda kuchli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni yuritish zarur ekanligi hamda o'tish davrida milliy munosabatlarga alohida e'tibor berish, uni to'g'ri hal qilish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari, bu asarlarda ma'naviyat muammosi, shaxs milliy o'zligini anglash, islom dinining mohiyatini to'g'ri ochish, islom va sharq falsafasi, boshqa qator muammolar siyosiy jihatdan, ilmiy-nazariy hal etilgan. I.A.Karimov tomonidan yozilgan asarlarda hozirgi murakkab tarixiy sharoitda mustaqillik davrida respublikamizda va boshqa mamlakatlarda istiqomat qilayotgan odamlarni, olimlari-siyosatshunoslarni, faylasuflar, huquqshunoslarni allaqachon tashvishga solib kelayotgan ilmiy echimini kutayotgan jamiyat va taraqqiyot qonunlari haqidagi istiqlol sari dadillik bilan borayotgan xalqlar va mamlakatlar kelajagi qanday bo'lishligi to'g'risida fikr-mulohazalar dasturiy yo'llanmalar o'rta tashlangan.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan nazariy va siyosiy xulosalar, jumladan, iqtisodiyotni isloh qilish, jamiyatni yangilash, fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi to'g'ri ekanligini hayotni o'zi tasdiqlab bermoqda.

«Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni

mustahkamlash yo'lidan og'ishmay izchil va qat'iyat bilan borishdir» deb, ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov.³

Tayanch iboralar:

Siyosat, siyosiy hayot, siyosatshunoslik, siyosatshunos, demokratiya, siyosiy munosabatlar, siyosiy tizim, kategoriya, qonuniyat, qiyosiy taqqoslash, Prezident I.A.Karimov asarlari, dialektik uslub, bioxeviorizm, tarixiylik uslubi, sotsiologik uslub.

Savollar:

1. «Siyosatshunoslik» fani nimani o'rganadi va o'rgatadi?
2. Siyosiy fanlar tizimida «Siyosatshunoslik» fani o'rni va roli haqida nimalarni bilasiz?
3. «Siyosatshunoslik» fanining qonuniyatlari va kategoriyalarini tavsiflab bering?
4. «Siyosatshunoslik» fanini rivojlantirishda Prezident I.A.Karimov asarlarining ahamiyati haqida gapirib bering?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li - T.:O'zbekiston,1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
7. Politologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
8. Politologiya, o'quv qo'llanma, Toshkent, 2002 y.
9. Politologiya fanidan ma'ruza matnlari I-qism, Samarqand, 2000 y.

Dars o'tish usuli va vositalari:

Yangi pedagogik texnologiyalarining (Bumerang, Klaster, Skarbey, aqliy hujum, blits o'yin texnologiyalari) qo'llash. Ko'rgazmali qurollar, elektron darsliklar, tarqatma materiallardan foydalanish.

³ Karimov I.A. Bizning bosh maqsidimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.-T.: O'zbekiston, 2005 y. – B.34.

2 – mavzu: SIYOSIY QARASHLAR VA TA`LIMOTLARNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Reja: 4-soat

1. Siyosiy qarashlar va ta`limotlarning shakllanishi.
2. Sharqda siyosiy fikr va g'oyalar.
3. Yangi davrda siyosiy qarashlar.
4. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arb va Sharqdagi siyosiy g'oyalar.

1. Siyosat har bir tarixiy davrning mahsuli sifatida shu davr ijtimoiy – siyosiy taraqqiyoti ehtiyojlarini ifodalaydi. Shuning uchun insoniyat tarixining turli bosqichlarida turli siyosiy qarashlar mavjud bo'lgan va shunga mos ravishda uning mavzui va vazifalari ham o'zgarib borgan.

Siyosiy g'oyalarning paydo bo'lishi va shakllanini uzoq davrni o'z ichiga oladi. Xususiy mulkchilikning vujudga kelishi, jamiyatning sinflarga bo'linishi hamda ishlab chiqarish kuchlari rivojlangan sari unga mos keladigan siyosiy-g'oyalar ham paydo bo'lib, rivojlanib boradi.

Ma'lumki, dastlabki siyosiy qarashlar qadimgi SHarq mamlakatlari Misr va Bobilda eramizdan oldingi III ming yillikning oxiri II ming yillikni boshlarida paydo bo'ldi. Ammo bu siyosiy qarashlar tizimlashgan emas edi. Ancha mukammal siyosiy qarashlar er.av. II ning yillik o'sha davrda nisbatan yuqori taraqqiyot bosqichida turgan Hindiston va Hitoy mamlakatlarida paydo bo'ldi. Demak siyosiy g'oyalarning paydo bo'lishi va shakllana berish uzoq tarixiy a`nanalarga ega. Uning paydo bo'lishi sarchashmalari eramizdan oldingi II ming yillikning o'rtalariga borib tiqaladi. Davlatning paydo bo'lishi ichki va tashqi siyosat yuritishi, siyosiy munosabatlarni to'g'ri yo'naltirish uchun nazariy-metodologik zamin bo'lib xizmat qildi.

Konfutsiychilik – qadimgi Xitoyda etakchi, g'oyaviy oqimlardan biridir. Uning asoschisi Kon-Fu-TSzidir (er av. 551-479 y). Uning g'oyalari «Mun'-yui» (suhbatlar va muxokamarlar) kitobida bayon qilingan. Konfutsizining fikricha inson taqdirini osmon belgilaydi va odamlarning «zodagon» va «past» kishilarga bo'linishini o'zgartirib bo'lmaydi. Kichik kattaga, pastda turuvchi yuqorida turuvchiga so'zsiz itoat etishi kerak. SHunday qilib, konfutsiychilikda

imtiyozli, sinflarni haq qilib ko'rsatish va «Osmon iroda»sini ko'klarga ko'tarib maqtash g'oyasi etakchi yo'nalish bo'lib qoldi.

Siyosiy qarashlarning rivojlanishi qadimgi YUnonistonda ancha tez shakllana va rivojlana boshladi. Bunga asosan Afina quldorlik demokratiyasi ancha turtki bergan edi. Afina demokratiyasining gullab yashnashi davrida bu shaharda falsafiy maktablar yaratildiki, keyinchalik bu maktablar va ularning asoschilari butun dunyoga tanildi.

Eramidan oldingi VI asr boshlari va V asrning oxirlarida falsafa va siyosat olamiga Geraklit (er.av. 530-470 y) kirib kelgan. Jamiyatga nisbatan aristokratlarcha, qarashlar Geraklitda ba'zi progressiv xislatlar bilan qushilib ketgan. U aristokratlar himoya qilgan an'anaviy yozilmagan huquqqa, davlat tomonidan begilangan qonunni qarshi qo'yadi. Suqrot (er.av. 469-399 y) qadimgi yunon faylasufi, siyosatshunosi, o'zi hech narsa yozmagan, lekin uning siyosiy qarashlarini uning shogirdi Platon (Aflotun) o'z asarlarida qayd etgan, u Afina quldorlik demokratiyasining nuqsonlarini juda ta'sirli va asosli qilib tanqid qiladi. Buyuk mutafakkir Platon qadimgi, yunon faylasufi, siyosatshunosi, Suqrotning shogirdi 80 dan ortiq asar yozgan. U «Qonun», «Siyosat», «Davlat» boshqa asarlarida o'zining siyosiy qarashlarini bayon etgan. O'zining siyosiy qarashlariga ko'ra Platon Afina aristokratiyasining vakili edi. Jamiyat haqidagi ta'limotida u aristokratik davlatni tasvirlab beradi. Qadimgi Yunonistonning mashhur mutafakkirlaridan biri Aristoteldir (Arastu). U o'zining «Siyosat» asarida demokratiyaning me'yorida bo'lishi kerakligini agar u chegaradan chiqib ketsa jamiyat buzilishligini bildiradi. Aristotel', Inson o'z ta'limotiga ko'ra siyosiy mavjudotdir degan fikrni ilgari oshadi⁴. er. av. 106-43 yillarda yashab ijod etgan qadimgi Rim notig'i Mark Tulliy TSitseronning siyosiy qarashlari alohida o'rin tutadi. U davlat faoliyatida monarxiya, aristokratik va demokratik asoslarni qo'shish zarurligi haqida xulosaga moyil edi va Rim Konstitutsiyasi bu talabga javob beradi, deb hisoblar edi. Ushbu davrdagi siyosiy qarashlar falsafiy qarashlar bilan uyg'unlashib ketgan edi.

2. Siyosiy g'oyalarning rivojlanishida SHarqning jumladan, Markaziy Osiyoda yashagan mutafakkirlarning hissasi ham kattadir. Nizomul-Mulk (1017-1097 y) ham siyosatchi, ham atoqli davlat arbobi sifatida tarixda sezilarli

⁴ Qarang: //Odil Qoriev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik, Toshkent, 2009 y. – B. 39..

iz qoldirgan. Uning «Siyosatnoma» asari jahon halqlarining ko'p tillariga tarjima qilingan. U o'z asarida markazlashgan siyosiy hokimiyatning zarurligi va uning afzalliklari, bunday davlat tuzish va uni mustahkamlashni amalga oshirish vositalari, hamda uslublari haqida siyosiy qarashlarini bayon etgan. SHu maqsadda Nizomul-Mulk Bag'dodda maxsus siyosiy-huquqiy maktab tashkil ettirgan bo'lib, unda siyosiy boshqarish ishlari uchun mutaxassis amaldorlar tayyorlangan va bu maktabga uning nomi berilgan bo'lib, «Nizomiya» deb atalar edi.

Ilk o'rta asr buyuk mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Farobiy edi. (870-950 y). Farobiy o'zining «Baxtga erishish haqidagi traktat», «Urush va tinch totuv yashash haqida», «Jamiyatni o'rganish haqida kitob», «Davlat arboblari haqida aforizmlar», «Fozil odamlar shahri» kabi asarlarida jamiyat, davlat, huquq, adolat, siyosat, ta'lim va tarbiya masalalariga chuqur e'tibor bergan. U o'zining bu asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo'lishi, uning shakli, davlat arbobi va uning vazifasi, ular oldiga quyiladigan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqidagi fikrlarini chuqur siyosiy falsafiy qarashlarda bayon etgan. Siyosat bobida Farobiyning katta xizmatlaridan biri uning ideal jamiyat haqidagi o'ylari va bu haqida yozgan asarlaridir. Uning «Fozil shahar ahli qarashlari haqidagi kitob», «Siyosat al-madaniyat (SHaharlar ustidan siyosat yurgizish) asarlarida oliy-janob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida, shuningdek, davlat apparati tomonidan olib boriladigan ishlar haqida fikr mulohazalarini bayon etgan. Farobiy orzu qilgan ideal shahar – davlatlarning asosiy vazifasi – bu tinchlikni, adolatni himoya qilish, odil sudlovni himoya qilish kabilardir. Farobiy taxtani otadan bolaga o'tish huquqini qoralab, davlat boshlig'i o'z lavozimiga munosib bo'lishini yoqlaydi.

O'rta asr mutaffakirlaridan biri buyuk entsiklopedist (qomusiy) olim Abu Ali Ibn Sinodir Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning falsafiy qarashlari asosida qurilgan. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari «Risolai tadbiri manzil» degan asarida bayon etilgan. Ibn Sino o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan Farobiy g'oyalariga qo'shilib, adolatli hukmdor boshqaradigan ideal jamiyat, tarafdori edi. Ibn Sino jamiyatda turli tabaqalari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, munosabatlar uyg'unlashib borsa, bunday jamiyatni siyosiy boshqarish oson bo'ladi, degan buyuk siyosiy fikrga keldi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y) O'rta asr buyuk mutafakkirlaridan biridir. Beruniy hayotda tartib o'rnatish uchun jamiyat shunday tuzilishi

lozimki, u kishilarning ehtiyojini qondirishga yordam bera olsun, buning uchun odillikni joriy qila oladigan hokimlik mansabini joriy etish lozim deydi. Beruniy insonning jamiyatda tutgan o'rnini uning «oqsuyakligi»ga qarab emas balki ko'rsatgan xizmatlariga qarab belgilanishi kerak degan fikr bildirdi. SHuningdek, u jamiyat podshoga xizmat qilmay, podsho jamiyatga xizmat qilishligini ta'kidlaydi.

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405 y) davrida Vatanimiz nafaqat mo'g'ul bosqinchlardan xolos bo'ldi, balki buyuk saltanat barpo etildi. Amir Temurning siyosiy qarashlari uning «Tuzuki Temuriy» (Temur tuzuklari) asarida bayon etilgan. Prezident I.A.Karimov ushbu asarni ahamiyati haqida shunday degan edi: «Yaqin-yaqingacha davlat boshqaruvi san'ati haqida so'z ketsa, ko'pchilik gapni yo markschi-leninchilarning davlat haqidagi soxta nazariyasi, yo bo'lmasa XVI asrda yashagan Makiavelli qarashlaridan boshlar edi. Qo'yib bersangiz bu odatni bugun ham davom ettirishadi. Davlat, saltanat, jamiyat boshqaruviga oid mumtoz asar – «Temur tuzuklarini» kim yozgan. Umuman, kishilik tarixida ana shunday yo'nalishida asar bitib qoldirgan boshqa hukmdor bormi o'zi?»⁵ Temur tuzuklarida Amir Temurning tarixi, uning zamonida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, o'sha davrda Amir Temurning xalqaro munosabatlardagi faoliyati, davlat qurilishi, armiyani tashkil etish kabi masalalarni o'z ichiga olgan. Amir Temur davlat boshqaruvi tizimini adolatli hukmdor qo'lida bo'lish kerakligini ta'kidlab, o'zi ham umr buy shunga amal qildi. Uning uzugida «Rosti-rusti» ya'ni «Kuch-adolatdir» degan so'zlar yozilgan edi.

Alisher Navoiy (1441-1501 y) buyuk o'zbek shoiri, davlat arbobi. Alisher Navoiy o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini «Sa'ddiy- Iskandariy» dostonida chuqur g'oyalar orqali bayon etadi. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida adolat tinchlik, do'stlik g'oyalari asosiy o'rin tutadi. U barcha davlatlarni, xalqlarni tinch totuv yashashga chaqiradi. Alisher Navoiy o'zining «Tarixi mulki ajam» asarida davlatga rahbarlik qilgan 65 shohga va ularning boshqarish sohasida olib borgan siyosatiga baho beradi.

3. G'arbiy Evropada feodalizmning (er egaligi jamiyati) emirilishi kapitalizmning (industrial jamiyat) vujudga kelishi natijasida jamiyatning siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Kapitalizm davridagi buyuk

⁵ Qarang: Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998 y. -B. 22..

mutafakkirlarning qarashlarida siyosiy hokimiyat masalasi markaziy o'rinni egaladi. G'arb mamlakatlarida fan texnika, adabiyot, san'at ham beqiyos rivojlana boshladi. Uyg'onish davrining taraqqiyparvar siyosiy g'oyalarini, keng targ'ib qilgan mutafakkirlaridan biri itamiyalik Nikola Makiavelli (1469-1527 y) edi. U o'zi asarlarida respublika boshqaruv tizimning siyosiy hokimiyatning eng yaxshi shaklidir deb, shunday fikrni ilgari suradi. Chunki ushbu boshqaruv tizimida har bir inson davlat ishlariga, siyosiy boshqarishga jalb qilinishi mumkin degan fikrga keladi. Makiavellining «Hukmdor» nomli falsafiy – siyosiy asarida qudratli davlat tizish mumkin degan fikr bildirilgan. Uning siyosiy qarashlaridan yana bir muhim fazilat shundaki, u cherkovni davlatdan ajratish lozimligi to'g'risidagi siyosiy g'oyani tafakkur tarixida birinchi bo'lib ilgari suradi. Makiavelli davlatni kurashuvchi harakatiga qarab, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi tashkilot deb, ta'rifladi. Jamiyat – deb ta'lim beradi u o'zining «Knyaz'» degan asarida, - xudoning irodasi bilan emas, balki tabiiy sabablar taqozasi bilan rivojlanadi.

Tomas Gobbs (1588-1679 y) ingliz falasufi o'zining, Tabiiy va siyosiy qonunlardan parchalar, «Fuqaro to'g'risida» va boshqa asarlarida huquq va davlat to'g'risidagi g'oyalarini ilgari surdi. Huquq va davlat haqidagi ta'limotida Gobbs jamiyatni xudo barqaror qilganligi to'g'risidagi nazariyani ulotirib ijtimoiy shartnoma nazariyasini yoqlab chiqdi. Absolyut monarxiyani davlatning eng yaxshi formasi deb, hisobladi. Uning g'oyasi asl ma'nodagi ya'ni hokimiyatni bir kishi qo'lida to'planishni emas, balki davlat hokimiyatining cheklanmagan karakteridir. Gobbs aytgan davlat hokimiyatining huquqlari XVII asrning o'rtalarida Angliyada burjua inqilobini amalga oshirgan sinflarning manfaatlariga mos bo'lib tushgan edi.

Ingliz faylasufi va siyosatshunosi Jonllokning (1632-1704 y) asarlarida davlatning qonunlarga va qonunchilikka asoslangan faoliyati bilan bog'liq masalalar haqidagi muhim siyosiy fikrlar ilgari surilgan. U o'zining siyosiy qarashlarini, davlat hokimiyati va huquqi to'g'risidagi ta'limotini, «Inson aqli to'g'risidagi tajriban asarida bayon etgan. Lokkning fikricha, davlatning maqsadi – erkinlikni hamda mehnat vositasi bilan orttirilgan mulkni saqlashdir, shu bilan birga qonunlar shaxs erkinligini himoya qilishi va ularning huquqlarini kengaytirishning zarur shartidir. Uning fikricha hokimiyat uchga ya'ni 1 Qonun chiqaruvchi. 2. Ijro etuvchi. 3. Ittiroq federativ hokimiyatiga bo'linishi kerak.

Frantsuz faylasufi va siyosatshunosi Jon Mel'e (1664-1729 y) o'zining «Vasiyat» asarida hamda yana bir frantsuz tarixchi va siyosatshunosi Mabli Gabriel Bannod (1709-1785 y) o'zining «Qonun chiqaruvchilik va qonun printsiplari» asarida sotsial adolatsizlikni qattiq tanqid qilib, mol -mulk mushtarakligiga asoslangan tuzumning qizg'in himoyachisi bo'lib chiqdi. Ularning fikricha xususiy mulkning kelib chiqishi barcha ijtimoiy illatlarning sababchisidir. Ular mehnatkashlarning birlashuvi zalimlarga va qarshi inqilob ko'tarishiga haqi bor deb, hisoblashgan.

4. XIX asr oxiri, XX asrning boshlaridagi G'arbiy Evropadagi siyosiy, qarashlarning rivojlanishida Pol'shalik (1838-1909 y) Ya.Gumpilovichning katta hissasi bor. U o'zining «Sotsiologiya va siyosat» va «Sotsiologiya asoslari» degan asarlarida davlatning kelib chiqishi va uning asl tabiati haqida fikr bildirib, hayot boshlangan davridayoq odamlar guruhi o'rtasida doimo shafqatsiz va uzluksiz kurash davom etganligini yozadi. L.Gumpilovich fikricha, g'oliblar va mag'lublar avlodlari o'rtasidagi majoralar davlatlar o'rtasidagi nizolar-bu insoniyatning yashashi uchun zarurdir. Bu bilan u ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot qonunlariga ishonmaydi. Guyoki har bir jamiyat, o'z ichida aylanma doira bo'yicha qaror topishi rivojlanishi va halok bo'lish pallarini boshdan kechirib, ijtimoiy-siyosiy hayot yana bir navbatdagi aylanma doira bo'yicha amal qilaveradi.

Nemis iqtisodchi va sotsiolog olimi Frants Oppengeymar (1864-1943) o'zining «Sodtsiologiya sistemasi» kitobida shunday yozadi: Kapitalizm keltirib chaqadigan barcha ijtimoiy-siyosiy illatlarning manbai, yirik er mulkchiligida bo'lib, sinflar va davlatning kelib chiqishi bevosita er mulkchiligi natijasida sodir bo'ladigan bo'ysindirish va siyosiy zo'ravonlik ishlatish bilan chambarchas bog'liqdir. Uning ta'kidlashicha, davlat o'z navbatida odamlarning siyosiy hukmronlikka intilayotgan bir guruhi tomonidan zo'rlik vositasida ularning boshqa guruhining o'ziga bo'ysundirish uchun ishlatiladigan huquqiy muassasadir.

Gaetina Moska (1858-1941) italiyalik huquqshunos, sotsiolog va ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar bilan shug'ullangan tarixchi olimdir. U o'zining «Siyosiy fandan parchalar» asarida «siyosiy va boshqaruvchi sinf nazariyasini ishlab chiqqanligi bilan tanilgan. G.Moska «barcha jamiyatlarda odamlarning ikki sinfi mavjud bulib, ular boshqaruvchilar va boshqariladiganlardan iboratdir», deb o'qtiradi. Boshqaruvchilar ozchilikni tashkil qilsa ham ular kuch, boylik,

uyushqoqlik, qadriyatlariga egadir, demokratiya aslida kengaytirilgan aristokratiyaning o'zginasidir degan fikrni bildiradi. G.Moska davlatdagi hokimiyat faqatgina ozchilik qo'lida bo'lishi lozim. elita (frantsizcha – sara zodagon) – bu hukmron sinf. Siyosiy taraqqiyot bir hukmron elita qo'ldan ikkinchisiga o'tganda yuz beradi. Hokimiyat hech qachon ko'pchilikning qo'lga o'tmaydi. Ushbu davrda yashagan italiyalik sotsiolog va iqtisodchi Val'fredo Pareto, amerikalik Moisey Ostrogorskiy asarlarida ham elita nazariyasi ilgari surilgan.

Frantsiyalik siyosatshunos Moris Dyuverje o'zining «Siyosiy partiyalar», «Siyosiy fanlar uslubi», «Diktatura to'g'risida», «Yarim Prezidentlik tartiblari» va boshqa asarlarida siyosiy g'oyalarini bayon etgan. Moris Dyuverjening siyosiy qarashlariga ko'ra hozirgi burjua jamiyati allaqachon taraqqiyot cho'qqisiga chiqib olgan. Unda hokimiyat uchun turli siyosiy partiyalar jamoat tashkilotlari va boshqalarning kurash olib borishlari «siyosiy xilma-xillik demokratiyasining o'zginasi emish».

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Sharqda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida ham siyosiy g'oyalar rivojlandi. Bizga ma'lumki, XIX asrning 60-90 yillarida Markaziy Osiyo chorizm tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa yarim mustamlakaga aylantirildi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga va o'sha davrda hukmronlik qilgan siyosiy munosabatlarga norozilik kayfiyatlari o'sha davrda yashab ijod etgan mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida o'z ifodasini topdi.

Ushbu davrda O'zbekiston hududida siyosiy fikrlarning rivojlanishida Ahmat Donishning xizmatlari kattadir. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari «Navodirul voqae» (Nodir voqealar) «Tarjimai ahorli amironi Buxoro» (Buxoro amirlarining tarjimai hollari) aniq va ravshan qilib berilgan. Ahmat Donish Buxoro amirligi siyosiy tashkiloti faoliyatini keskin qoralaydi va bu tashkilotni CHingizxon hukmronligi davrini qoldig'i deb, hisoblaydi. Bu bilan u Buxoro amirining cheklanmagan hokimiyatiga qarshi chiqadi. U Rossiya va Evropa mamlakatlarida tarqalgan siyosiy g'oyalar bilan tanishib mutloq monarxiyaning dushmani, ammo konstitutsion monarxiya tarafdori bo'lib qoldi.

Turkistonda jadidchilik (jadid-arabcha yangicha usul) asosan XIX asr boshlarida madaniy-ma'rifiy islohatlarni amalga oshirish tashabbusi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib ular o'zlarining ijtimoiy-siyosiy

g'oyalarini ham olg'a sura boshladilar. Jadidlarning maqsadi zamonaviy Evropa tsivilizatsiyasini (har tomonlama yuksalish) milliy, diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali turkiy musulmon xalqlarni dunyoni rovojlangan xalqlari qatoriga qo'shish edi. Turkiston jadidlarining yana bir siyosiy maqsadi Turkistonda ozod burjua demokratik davlat qurishidan iborat edi.

Ushbu davrda yashab ijod qilgan Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Berdaq, Sattorxon kabi shoirlar o'z asarlarida mehnatkash xalqning og'ir ahvolini tasvirlaydi. Xonlik tuzumining ma'muriy va siyosiy idora tashkilotlari usuli va faoliyatini qattiq tanqid qiladi. Hukmdor sinflarning ochko'zligi, poraxo'rliqi, shuningdek Turkistonda o'rnatilgan chor Rossiyasi mustamlakachilik boshqaruv tizimini tanqid qiladilar.

Tayanch iboralar:

Xitoy, Hindiston, Konfutsiy, Afina quldorlik demokratiyasi, Suqrot, Aristotel', Nizomul-Mulk, Nizomiya, Farobiy, Ibn Sino, Fozil odamlar shahri, Temur tuzuklari, Navoiy, Makiavelli, Tomas Gobbs, Jon Lokk, Jan Mal'e, «Sotsiologiya va siyosat», elita, Gaetano Moska, Ahmad Donish, Jadidchilik.

Savollar

1. Ilk siyosiy g'oyalar qayerda va qachon vujudga kelgan?
2. Abu Nasr Farobiy siyosiy g'oyalarning mohiyati nimada?
3. Sohibqiron Amir Temurning «Kuch adolatdadir» shilrining bugungi kundagi ahamiyatini gapirib bering?
4. «Elita» nazariyasini ilgari surgan italiyalik-siyosatshunoslar siyosiy g'oyasiga qanday munosabat bildirasiz?
5. Pol'shalik YA.Gumpilovich siyosiy g'oyalari haqida nimalarni bilasiz?
6. Ahmad Donish va jadidlar siyosiy g'oyalari o'rtasida qanday umumiylik hamda qanday fikrlar bor?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, T: SHarq, 1994.
2. Karimov I.A. Amir Temur faxrimiz g'ururimiz. Toshkent, 1996.
3. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi, 1993.
5. Nizomul-Mulk. Siyosatnoma yoki siyar-ulmulk. T.: Adolat, 1997.
6. Sulaymanova F. Sharq va G'arb. Toshkent, 1997.
7. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000 y.
8. Politologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2002.
9. Politologiya fanidan. Ma'ruza matnlari. 1-qism. Samarqand, 2000 y.
10. Odilqoriev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Toshkent, 2009.

3 – Mavzu: DEMOKRATIYA. DEMOKRATIYANING ASOSIY KONTSEPTSIYALARI.

Reja:

1. Demokratiya tushunchasi va mazmuni.
2. Antik demokratiya. Demokratiyaning zamonaviy modellari.
3. Demokratiya va Sharq.

1. Demokratiya (qadimiy yunon tilida «demos» – xalq va «kratos» - hokimiyat) - ya`ni «xalq hokimiyati» degan ma`noni anglatadi. Hozirgi davrning butun murakkabligi va ziddiyatlariga qaramay uning siyosiy yo`nalishi – demokratiya ekanligi shubhasiz. Yangi tashkilotlar, partiyalar ham o`z dasturlarini demokratik mazmuniga ega ekanligini tashviqot qilishadi. Lekin, ayrim manbalarga tayanadigan bo`lsak, jahondagi 200 ta mamlakatdan atigi 40 tasinigina to`la qonli demokratik deb, atash mumkin. Jahondagi biror mamlakatni demokratiyaning yorqin namunali timsoli sifatida ko`rsatish qiyin.

G`arb siyosatshunoslari demokratiyaning mukammal shaklini qadimgi Yunonistonning shahar - davlatlari bilan bog`laydi. Qadimgi Yunonistonda demokratiya quyidagi ma`nolarni anglatgan: Isyonkor yo`qsillar tantanasi; kambag`allar hukmronligi; polis ichidagi barcha fuqarolarning saylovda ishtiroki: rasmiy tadbirlar orqali (saylov, lavozimga tayinlash), boshqarishda ishtirok etish; Demokratik boshqaruvning yunoncha sinionimi «izokratiya» (o`zini-o`zi boshqarish)dir.

Qadimgi YUnoniston tarixi-demokratik va oligarxik (ozchilik hukmronligi) boshqaruv tizimlari o`rtasidagi kurashlar tarixidir. Ammo, demokratiya tushunchasiga tarixiy yondashish zarurligini unutmaslik kerak. Tarixiy rivojlanish jarayonida u ham o`z mazmunini boyitib borgan. YAngi davrda demokratiya: erkinlik; fuqarolik; xalq suvereniteti; milliy suverenitet; milliy davlat kabi tushunchalar bilan boyitildi.

Demokratiya, haqida gapirganda aksariyat hollarda birinchi navbatda, saylov majmuasiga va jamiyatda inson huquqlariga urg`u beriladi. Boshqacha aytganda, eng avvalo jamiyatning va unda yashayotgan fuqarolarning yashash sharoitlari tahlil qilinadi. Lekin, demokratiyaning bunday tahlili tor va bir tomonlamadir. Uni to`liq tahlil etish uchun sub`ektiv omillarni ham hisobga olish va ular bilan hisoblashish zarur. Demokratiya insonning xuddi shunday har

tomonlarni barkamol rivojlanish uchun berilgan imkonidir. Demokratiya shaxs bilan jamiyatning uyg'unligini ta'minlovchi omildir. Bu uyg'unlik qanchalik takomillashgan bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti shunchalar ildamlamadi. Demokratiya shaxs erkinligini ta'minlovchi va uni tartibga soluvchi omildir. Demokratiya har bir shaxsning shakllanishiga chegara ham qo'yadi. Konstitutsiyaga oid qoidalar va qonunlar orqali shaxslarning ijtimoiy hayoti va hatti harakatlari tartibga solinadi. Ammo, demokratiya shaxsning shakllanish jarayonida faqat, uni to'xtatib turuvchi va yo'naltiruvchi, chegara» vazifasining o'ynamaydi. U shaxslarning o'zlari yashaydigan jamiyatning axloqiy, psixologik iqlimini vujudga keltiradigan shart-sharoitlarini ham yaratadi⁶.

Demokratiya ikki shaklda namoyon bo'ladi: a) vakillik shakli; b) bevosita shakli. Vakillik shaklida fuqarolar qonunchilik, ijroiya va boshqa funktsiyalarni bajaruvchi organlarni saylaydilar, fuqarolarning o'zlari bu funktsiyalarni amalga oshirishida bevosita ishtirok etmaydilar; demokratiyaning bevosita ko'rinishi shundan iboratki, fuqarolar uning vositasida, masalalarni o'zlari hal qiladilar. Demokratiyaning bunday to'g'ridan-to'g'ri bevosita, shakliga referendumlar, davlat boshliqlarini saylash, mamlakat taqdirini umumxalq ovoz yo'li bilan belgilashga oid masalalar kiradi⁷.

Hozirgi vaqtda demokratiya – xalqni hokimiyat manbai, deb e'tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, fuqarolar huquqlarini himoyalovchi, davlatning asosiy organlari saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy hokimiyatlar tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda.

2. «Antik» - so'zi yunon tilidan «qadimgi» degan ma'noni anglatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilk yoki antik demokratiya (qadimgi SHarqda masalan, Hindistonda demokratik respublika tipidagi shahar davlatlar bo'lgan, ammo ular tizimlashmagan edi) qadimgi Yunonistonda shakllandi. Afina shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish xususida o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olar edi. Ular har oyda to'rt marta yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilish uchun majlisga yig'ilishgan. Barcha qarorlar ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan. Ammo, Afina demokratiyasi quldorlik demokratiyasi bo'lib, ular manfaatiga xizmat qilgan. Chunki barcha erkak fuqarolar 20 yoshdan boshlab (qullar, ayollar va

⁶ Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y. - B. 52.

⁷ O'sha asar, - B.52.

ajnabiylardan tashqari) Xalq majlisida saylash va saylanish huquqiga ega bo'lsalarda, lavozimlarga haq to'lanmaganligi uchun asosan quldorlar hokimiyatni egallashar edi.

Agar demokratiya jamiyatga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha bo'lsa, respublika (lotincha-xalq ishi) davlat boshqaruv shakliga nisbatan qo'llaniladi. Ilk respublika boshqaruv shakli qadimgi Rimda joriy etilgan. Ammo Rim respublikasi ham Afina demokratiyasi kabi quldorlik respublikasi (lavozimlar uchun haq tulanmaganligi sababli) edi. SHuni ta'kidlash lozimki, respublika boshqaruv tizim bilan demokratik jamiyat uyg'unlashsa davlat va jamiyat xalq manfaatiga xizmat qiladi. Ammo demokratiya va respublika qobig'iga burkangan mustabid tuzumlar ham bo'lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda demokratiyaning uch asosiy zamonaviy modeli: liberal, indentitar va plyuralistik modellari, ajratib ko'rsatiladi.

Liberalizm – ijtimoiy fikr tarixida birinchi bor individni jamiyat va davlatdan, ikki muxtor sohani-davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan ajraladi, davlatning fuqarolik jamiyati va shaxs bilan munosabatlarini qonun va vazifalar jihatidan chekladi. Demokratiyaning bu modeli XIX-XX asrning boshlarida quyidagi belgilarga ega edi.

1. Hokimiyat manbai bo'lgan xalq qatoriga mulkdor erkaklarga kiritilib, qo'yi qatlamlar, avvalo yollanma ishchilar, ayollarni saylov huquqiga ega fuqarolar safiga qo'shilmasligidir. 2. Individuallik ekanligi, ya'ni shaxsni hokimiyatning birlamchi va bosh manbai deb bilishdir. SHu bilan birga liberal demokratiyaning ijtimoiy-siyosiy cheklanganligi, fuqarolarning ijtimoiy himoya qila olmasligi, tengsizlikni zurayishi, shaxs siyosiy ishtirokining cheklanganligi uning muhim kamchiliklaridan hisoblanadi.

Kollektivistik (jamoaviy) demokratiyani ko'pincha identitar demokratiya deb atashadi. Bu uning xalq (millat sinf) yaxlitligi, birligidan kelib chiqishi, unda yagona irodaning u bayon etilguncha qadar mavjudligi va bu iroda bilan vakolatli hokimiyat faoliyatining o'xshashligini aks ettiradi. Ko'pgina farqlarga qaramay turli kollektivistik demokratiya nazariyalari bir qator umumiy belgilarga ega. Ularga quyidagilar kiradi. Xalqni jamoa sifatida talqin etish; xalq ichida qarama-qarshilik ya'ni siyosiy muxomifat yo'q, deb, hisoblash; erkinlikni jamoaviy tushunish; Amalda hokimiyatni totalitar ya'ni mustabid ekanligi; alohida shaxslarning himoyasizligi va boshqalar.

Plyuralistik – demokratiya nazariyasi dunyoning ko'p mamlakatlarida e'tirof etiladi va amalda qo'llaniladi. Ammo uning g'oyalari shubhasiz emas va tanqid qilib kelinadi. Bu modelning boshlang'ich kamchiliklaridan biri voqelikni ideallashtirish fuqarolarning manfaat guruhlarida ishtirokini oshirib yuborish. Real hayotda G'arb mamlakatlarida, aholining uchdan bir qismidan ko'p bo'lmagan miqdori manfaat guruhlariga birlashgan. SHuning uchun plyuralistik model asosidagi demokratiya ko'pchilik hokimiyati bo'lmaydi. Ko'rib o'tganimizdek, plyuralistik demokratiya modeli ham kamchiliklar va zaif tomonlardan holi emas. Ammo bugungi kunda xalq hokimiyatchiligi ideal iva real hayotda bundan ma'qulroq modellar mavjud emas. SHuning uchun plyuralistik demokratiya modeli siyosiy fikr va amaliyotga keng ta'sir ko'rsatadi.

Ammo, demokratiyaning barcha mamlakatlarga birdek mos keladigan andozasi yo'q. Har bir mamlakat demokratiyaning barcha modellarini ma'qul jihatini o'z sharoitidan kelib chiqqan holda o'zlashtiradi. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Barcha mamlakatlar uchun, ularga xos xususiyat va alomatlarini hisobga olgan holda, birdek mos keladigan yakkayu-yagona universal demokratiya modeli yo'q va bo'lishi mumkin emas»⁸.

3. Milliy ongda tub elementlar mavjudki ular har bir xalqining ruhi, mentaliteti, tabiatini belgilaydi. Shuning uchun ham demokratiyani G'arb va Sharq xalqlari, o'z mentaliteti, ruhiyatidan kelib chiqqan holda (demokratiyaning umumiy tamoyillari ikki tomonda ham tan olinadi) tashkil etishadi. Masalan, g'arbda demokratiya shaxsning ustunligi g'oyasiga asoslansa, sharqda ko'pincha guruh jamoa manfaati va huquqlari ustun qo'yiladi. G'arb demokratik modelidagi shaxsni jamiyat va davlat ta'siridan himoya qilishga urinishlardan farqlicha Sharqda masalan, Yaponiyada «shaxsni o'z-o'zini cheklash» uni jilovlash, uni jamiyat va davlat manfaatlari tizimiga uyg'un qilishini ta'minlash vazifasini qo'yadi. Bu erda an'ana va zamonaviylikni o'ziga xos sinteziga erishilgan. Modernizatsiya jarayoni ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalaridagi eng muhim an'analarni saqlagan holda amalga oshirilgan. Bu erda monarxiya burch kelishuv, jamoaga sodiqlik, shaxs manfaatlarining guruh manfaatlariga buysunishi kabi qadriyatlar saqlangan.

⁸ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat // O'zbekiston Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. Xalq so'zi. 2005, 10 dekabr'.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, demokratiyaning mutlaqo shaxs erkinligiga bog'lash xatodir. Xuddi shuningdek, bugungi kunda islom madaniyati musulmon davlatlarida demokratik tartiblarni o'rnatishga eng katta to'siq deb, hisoblash ham xatodir. Turkiya, Misr Marokash, Malaziya kabi davlatlarda demokratiya borasida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan. Islom dinida fitna-birlikni yashirish xavfi va umma – jamoa rolini ta'kidlash bilan birga bidoat – yangilanish ham muhim o'rin tepadi.

Demokratiyaga o'tmish saboqlari va hayot tajribasi asosida izchil-ilmiy qarash shundan iboratki, umuminsoniy nuqtai-nazardan demokratiya bittadir: ammo, bu birlik, shuning uchun ham hayotiyni, umumiy sharoitlar, mintaqaviy xususiyatlar va qit'aviy farq-tafovutlarni inobatga oladi. Barcha mamlakatlar hamma xalqlar demokratiyaga intiladilar, demokratik tartib qodilarning o'zlarini muayyan sharoitlarida qo'llash va turmushga tatbiq etishning eng ma'qul yo'llari va usullarini topishga harakat qiladilar. Ana shu jahon bo'ylab borayotgan ommaviy harakat o'zining muayyan shakl va mazmuniga ega ko'rinishlarini beradi. Shu ko'rinishlaridan biri sharqona demokratdir⁹.

Mustaqil O'zbekistonda Sharq demokratiyasini tiklash, asoslash va hayotga tatbiq etish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi ajdodlarimiz tarixiy tajribasi inobatga olingan holda, bugungi kunda mukammal shakl kasb etgan sharqona demokratiya qoidalariga asoslangan kuchli ijtimoiy siyosat tufayli respublikamiz umumjahon miqyosida o'z o'rnini va mavqeiya ega bo'lib, yildan-yilga iqtisodi yuksalish sari dadil odamlar bilan qadam tashlamoqda. Bu albatta, jumladan, sharqona demokratiya qodilarga asoslangan siyosat natijasidir. SHarqona demokratiyaning mustaqil O'zbekistonda qo'llanila boshlanishi xalqimiz tomonidan katta ko'tarinkilik bilan qabul qilindi. Xalq o'zining azaliy tartib qoidalarini boyitib, ularni tiklay boshladi¹⁰.

Demokratik jamiyatni yanada takomillashtirish borasida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi. «Biz demokratik davlat va fuqarlik jamiyati barpo etish, yo'lini tanlagan ekanmiz, demokratiyaning asosiy printsiplarini, ya'ni jamiyatimizda xalq irodasining to'la hukm surishi, inson huquq va erkinliklarini qaror toptirish masalalari bugun hayotimizda qay darajada o'z

⁹ Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000. – B. 242.

¹⁰ O'sha asar, - B.241-242.

aksini topmoqda va shu talablarga to'liq javob berish uchun biz yana nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim, degan savollarni oldimizga quyishimiz tabiiy»¹¹.

Tayanch iboralar:

Demokratiya, antik demokratiya, liberal, identitar, plyuralistik demokratiya, sharqona demokratiya, sharqona demokratiyaning o'ziga xosligi, g'arb demokratiyasi, Afina quldorlik demokratiyasi, Rim respublikasi, mustaqil O'zbekistonda demokratik modellar uyg'unligi.

Savollar:

1. Bugungi kunda demokratiya modellarini qaysi biri keng tarqalgan? Nima uchunligini tushuntirib bering?
2. Har qanday monarxiya – totalitar, har qanday respublikani demokratik tartibotga asoslangan, deb ayta olamizmi?
3. SHarqona demokratiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Mustaqil O'zbekistondagi demokratik jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 y.
6. Politologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
7. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000 y.
8. Mamashokirov S., Tog'ae'v Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y.
9. Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: Sharq, 2002.

¹¹Mamashokirov S., Tog'ae'v Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy – mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y. – B. 32 ..

4 – Mavzu: SIYOSIY HOKIMIYAT. SIYOSIY HAYOT VA KO'P PARTIYAVIYLIK.

Reja:

1. Hokimiyat tushunchasi.
2. Hokimiyatni tuzilishi, ko'rinishlari va ularning turlari.
3. Siyosiy partiya tushunchasi, Partiyaviy tizim.

1. Hokimiyat – kishilik jamiyati, paydo bo'lganidan buyon mavjud bo'lib, to hozirgacha qudratli «joziba» insonlar aqlini o'ziga tortib kelayotgan nihoyatda murakkab ijtimoiy hodisa. Bugungi kunda aksariyat olimlar e'tirof etgan nuqtai nazarga ko'ra, hokimiyat bu muayyan shaxs (guruh)ning u yoki bu kishi (guruh) ustidan boshqaruvini amalga oshirishi (hukmronlik qilish), u yoki bu narsaning taqdirini hal etish huquqidir. Hokimiyatning muhim sifati uning kishilar o'rtasidagi irodaviy munosabat ekanligida ifodalanadi. Hokimiyat bu shunday irodaviy munosabatki, bunda hukmron irodaning ustunligi belgilovchi roli ta'minlanadi. Hokimiyat amalga oshgan joyda muayyan irodaviy akt (munosabat) bor va ishning natijasida ro'y beradigan boshqaruv va boshqarilish mavjud bo'ladi. Demak, hokimiyat buysunish va zarur bo'lganda majburlash elementlari orqali amalga oshiriladi. Ma'lum obro' (avtoritet) va bo'ysinishsiz boshqarish mumkin emas¹².

Hokimiyat tushunchasi oddiy tilda va ilmiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llaniladi. Har bir holatda va sharoitda bu tushuncha o'ziga xos ma'no va maxmunga ega bo'ladi. Masalan «oila hokimiyati», «ota-onalar hokimiyati», «davlat hokimiyati», «sud hokimiyati» va boshqalar. Ilmiy adabiyotlarda siyosatshunoslar – siyosiy hokimiyat to'g'risida, sotsiologlar-sotsial hokimiyat, huquqshunoslar, davlat hokimiyati, dindorlar-ilohiy hokimiyat to'g'risida fikr bildirishadi. Ular ijtimoiy hayotning xilma-xil sohalarini o'rganishda hokimiyat tushunchasidan foydalanadilar.

Hokimiyat siyosat bilan uzviy bog'liq. Biroq hokimiyatni siyosiy kurashning birdan-bir maqsadiga aylantirish to'g'ri bo'lmasa kerak. Professor E.Vyatr ta'kidlashicha, hokimiyatni egallash va uni amalga oshirish uchun

¹² Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: Sharq, 2002. 59 b.

kurash siyosatning asosiy mazmunini tashkil etadi. V.N.Amelin haqli ravishda hokimiyatning mohiyatini kurashga, zo'rlikka olib borishga qarshi chiqadi. Bu to'g'ri, zero bu erda hokimiyat «bilan» hokimiyatga munosabat masalalari chalkashtirilmoqda. Majburlash va zo'rlikdan foydalanish hokimiyatni amalga oshirishning usullaridan biridir, xolos. Hukmronlikka erishishda, majburlash kuch (zo'rlik) ishlatish, ishontirish, rag'batlantirish, tarbiya kabi turli-tuman usul va vositalardan foydalaniladi¹³. Hokimiyat bu kishilar ustidan siyosiy hukmronlikdir. Hokimiyat bu ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan muassasa va irodalardir.

2. Siyosatshunoslikda siyosiy hokimiyat asosiy o'rin tutadi. Siyosiy hokimiyat-hokimiyatning eng muhim va murakkab ko'rinishlaridan biridir. U muayyan xalq, sinf, gurux, individning o'zining siyosatdan ifodalanagan irodasini amalga oshirish imkoniyatidir. Siyosiy hokimiyat-murakkab ijtimoiy hodisa. U davlat hokimiyati va boshqa siyosiy tashkilotlardan tarkib topadi.

Siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biri davlat hokimiyatidir. Davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xarakterga ega bo'lib, asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarishdan iborat. U muayyan tashkiliy shakllarda namoyon bo'ladi, maxsus usullar va vositalar bilan amalga oshiriladi. Hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida davlat hokimiyati huquq vositasida Konstitutsiya tarzida qonunlarda instituttsional ko'rinishda rasmiylashtiriladi¹⁴.

Davlat hokimiyati mamlakat ichkarisida ijtimoiy tartibni saqlaydi, fuqarolarning totuvligini, davlatning bir butunligini ta'minlaydi. Uni ichki va tashqaridan bo'ladigan hujumlardan himoya qiladi xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy madaniy hamda fan va texnika sohasidagi hamkorlikni o'rnatadi va mustahkamlaydi. Davlatning shakllari bir xil siyosiy tizim doirasida turli-tuman bo'lishi mumkin. SHuning uchun ularning o'zlariga xos bo'lgan belgilariga qarab uch guruhga bo'lish mumkin. a) boshqaruv shakli. b) davlat ko'rinishi shakli. v) siyosiy rejim. Boshqaruv shakli deganda hokimiyatning tashkil etilishi tushuniladi. Boshqaruvning ikki asosiy shakli, monarxiya va respublika shakllari ma'lum; davlat qurilish shakli deganda esa davlat birligini tashkil etish usuli tushuniladi. Davlatlar davlat qurilish shakliga ko'ra unitar (yaxlit) federativ (murakkab) bo'ladi; siyosiy rejim deganda davlat hukmronligini amalga oshirish usuli tushuniladi. Avtoritar va demokratik

¹³ O'sha asar, - B.59-60

¹⁴ Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati- T.: Sharq, 2002-B 60.

rejimlar davlatning mohiyati, namoyon bo'lishining asosiy shakllaridir. Biroq bu rejimlar amalda sof holda mavjud bo'lmaydi. Jamiyatning barcha davrlarida siyosiy rejimlar har ikkala shakl qo'shib olib borilishdan iboratdir.

Lekin davlat siyosiy hokimiyatning birdan-bir vositasi emas. Jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishda har xil nodavlat tashkilotlar ya'ni siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari, diniy tashkilotlar va hokazolar ham ma'lum darajada qatnashadi. Chunki ular davlat bilan birgalikda jamiyatning siyosiy faoliyati tizimni tashkil etadi, hamda o'zlarida davlat hokimiyati sub'ektlari siyosiy tashkiliy shakllarini o'zaro bog'liq bo'lishini ifodalaydi. Lekin, shu bilan birga davlat siyosiy tizimida alohida mavqega ega bo'ladi. Buning sababi shundan iboratki, birinchidan, davlat hokimiyati mexanizmga ega. Davlat hokimiyati o'zida turli organlarning: hokimiyat organlari, ijroiya-farmoiysh beruvchi organlar, odil sudlov, huquqni muhofaza qilish organlari, qamoqxona, razvedka, armiyadan iborat tizimni tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishni ifodalaydi. Ikkinchidan, davlat hokimiyatining mamlakatdagi boshqa barcha tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlar sohasida mustaqilligini ifodalovchi suverenitetga ega bo'ladi.

Davlat hokimiyatning taqsimlanish tamoyili, ya'ni davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linishi demokratik huquqiy davlatga xosdir. Davlatda bunday qoidaning o'rnatilishi uzoq tarixga ega bo'lib, uning to'g'risidagi fikrlar asosan XVI-XX asrlar davomida asta-sekin shakllana borib, hozirgi davrda davlat qurilishi va faoliyatining zaruriy tamoyillaridan biriga aylandi. Prezident I.A.Karimov bu masala xususida to'xtalar ekan, «Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlatning uchta asosiy tayanchidir» deydi¹⁵. Mustaqil O'zbekistonda barcha demokratik davlatlardagi kabi davlat hokimiyatning uchta tayanchi faoliyat yuritmoqda.

3. Siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biri siyosiy partiyalarning hokimiyatidir. Partiya so'zi lotin tilidan – qism, guruh degan, ma'noni anglatadi. Siyosiy partiyalar umumiy g'oya va manfaat ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarning ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huquqiy demokratik davlatni zaruriy omillaridan biri.

¹⁵Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000, - B. 288.

Partiya tizimining shakllanishi quyidagilar asosida ifodalanadi: a) an`analar va tarixiy omillar; b) ijtimoiy – iqtisodiy omillar; v) mafkuraviy omillar; g) texnikaviy omillar vahokazo¹⁶.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasidan markazdagi yoki joylardagi hokimiyatni qo`lga kiritish yohud undagi lavozimlarni saylovchi olgan ulushlariga qarab mutanosib ravishda taqsimlab olishga harakat qiladilar.

Siyosiy partiyalarning faoliyati qo`yidagi asosiy yo`nalishlarda olib boriladi. 1. O`z faoliyatining maqsadlarini aniqlash, belgilash, o`zining siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, badiiy qarashlari tizimini yaratish va ularni keng omma orasida yoyish; 2. jamiyat a`zolarining turli manfaatlarini o`z faoliyati va hujjatlarida mumkin qadar keng qamrab olib, ularning eng ma`qullagan partiyasiga aylanish; 3. turli organlarga saylovlarni tashkil qilish va o`tkazishda nihoyatda o`rinli va dolzarb shiorlarni o`rtaga tashlab siylovchilarni mumkin qadar keng doirasini ovozini ola bilishi; 4. siyosiy partiya qatoriga yangi a`zolari tortish, etakchilarning shakllantirish va hokazo.

Birinchi, eng ibtidoiy va kamsonli siyosiy partiyalar G`arbiy Evropada XVII-XVIII asrlar inqiloblari davrida shakllangan. XIX asr oxirgi – XX asrning birinchi yarmida siyosiy partiyalarning faoliyati eng yuksak nuqtaga etdi. Hozirgi zamon siyosiy, partiyalar faoliyatida «umummilliy», «umumdavlat» va «umuminsoniy» shior va shu kunning eng dolzarb muammolarini o`rtaga tashlash, aholini o`z atrofida uyushtirish masalalari ustuvorlik kasb eta boshladilar¹⁷.

Mustaqil O`zbekistonda ham siyosiy partiyalar aholi muayyan qatlamlarining, fuqarolar hamda ular uyushmalarining fikrini, nuqtai-nazarini ifodalashning muhim demokratik vositasidir. Xuddi mana shuning uchun ham, har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarini himoyachisi sifatida o`zining aniq va ravshan dasturiga ega bo`lishi kerak¹⁸. Bugungi kunda O`zbekistonda 4 ta ya`ni: O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi; Tadbirkorlik va ishbilarmonlar harakati O`zbekiston Liberal Demokratik partiyasi; «Milliy tiklanish», Demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial – demokratik partiyasi siyosiy faoliyat yuritmoqda.

¹⁶ Otamuratov S. va boshqalar. «Politologiya», Toshkent, 1998 y, B. 75.

¹⁷ O`sha asar. – B 193-194.

¹⁸ Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati- T.: Sharq, 2002 -B.60..

Tayanch iboralar:

Hokimiyat, hokimiyatning bo'linishi, siyosiy hokimiyat, davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, siyosiy tizim, siyosiy munosabatlar, boshqaruv shakli, davlat qurilishi, siyosiy rejim, siyosiy partiya, demokratik jamiyat.

Savollar:

1. Hokimiyat deganda nimani tushunasiz? Hukumat degandachi?
2. Siyosiy tizim (sistema) va siyosiy hokimiyat o'rtasida qanday umumiylik va qanday farq bor?
3. Unitar (yaxlit) va federativ davlatlar o'rtasida qanday farqlar bor?
4. Jamiyatda siyosiy partiyalar qanday o'rin tutadi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.:O'zbekiston,1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat engilmas kuch. – T.: Ma`naviyat. 2008 y.
6. Poletologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent, 1992 y.
7. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000 y.
8. Mamashokirov S., Tog'aeV SH. erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma`naviyat, 2007 y.
9. Odilqoriev H. Konstituttsiya va fuqarolik jamiyati. T.: Sharq, 2002.

5 – Mavzu: SIYOSAT TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Reja:

1. Siyosatning mohiyati, uning tor va keng ma`nosi, tuzilishi.
2. Siyosatning ijtimoiy hayot sohalarida namoyon bo`lishi.

1. «Siyosat» yunoncha «Polis», “politikos” so`zlarining tarjimasi bo`lib, uning ma`nosi, «davlatni boshqarish san`ati», «davlat ishlari» demakdir. Bugungi kunda siyosat davlat ishlarida ishtirok etish, davlatni yo`naltirib turish, uning shakli, vazifalari, faoliyati mazmunini belgilanishi (ifodalanishi) deb, talqin etiladi. Siyosat turli ijtimoiy guruhlarining jamiyatga munosabatini ifodasidir. Ingliz siyosatshunos olimlari G.Ponton va P.Jim siyosatni uch jihatining mushtarak birligi. 1. kishilarning ijtimoiy masalalarini tushunish va hal etish usullari; 2. bu faoliyat asosida yotuvchi printsiplar; 3. ayrim shaxs yoki guruhning vaziyat ustidan nazoratni qo`lga kiritish va saqlab qolish vositasi tarzda izohlaydilar.

G`arb siyosatshunosligida keng tarqalgan nuqtai nazarga ko`ra, siyosat-jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamalarning manfaatlarini murosaga keltirish, uyg`unlashtirish asosida oqilona qaror qabul qila olish qobiliyatidir¹⁹.

Angliyalik siyosatshunos J.Loski o`zining «Siyosatga kirish» asarida (1957 y) siyosatni «davlatning faoliyati, uning harakatlarining ifodasi» deb ta`riflasi, amerikalik siyosatshunos R.Dal o`zining «Posharxiya» asarida siyosatni «Davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyatini ko`rsatib beruvchi vositadir» deb yozadi. Siyosatning bosh maqsadi – jamiyatning barcha sohalarini taraqqiy ettirish va mustahkam bir butunligini, havfsizligini barqorligini osoyshtashligini ta`minlashdan iboratdir²⁰.

Siyosat o`zining ijtimoiy mohiyatiga ko`ra beqiyos bir san`atdir. U faoliyatning murakkab sohasi bo`lib, davlat va jamoat arboblari hukmron siyosiy kuchlar va partiyalarga keng jamoatchilikni o`z ta`sirlarida ustunlik bilan saqlab qolishga harakat qilishlaridan iborat. Siyosat – bu o`ylab bosilgan qadam kelishuvlar, yonberishlar, siquvlardir. Siyosat bu ba`zida ayyorlik qilish,

¹⁹Odilqoriyev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati- T.: Sharq, 2002 -B. 83.

²⁰ Odilqoriyev N., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Toshkent, 2009, - B. 108.

aldash, baʼzida ishonirish hamdir. Siyosatga xos boʻlgan bu kabi xususiyatlar uning sanʼat sifatidagi rolini ochiq oydin koʻrsatib beradi.

Siyosat oʻzining ijtimoiy mohiyatiga xususiyatiga koʻra keng va tor maʼnoda qoʻllaniladi. Keng maʼnoda siyosat ijtimoiy hayotning obʼektiv manzarasini ifodalaydi. U jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida sodir boʻlayotgan barcha ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni qamrab oladi. Chunki siyosatdan mutloq ozod hodisa va jarayonlarni topish qiyin tor maʼnoda, siyosat davlat hokimiyati idoralari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichkarisidagi faoliyati va ular oʻrtasidagi munosabatlar toʻgʻrisidagi masalalarni qamrab oladi. Bu tushunchaga davlatning, turli siyosiy kuchlarning, tashkilotlarning xalqoro maydondagi faoliyati va ular oʻrtasidagi munosabatlar kiradi. Tor maʼnoda siyosat jamiyatning maxsus sohalaridan biri iqtisodiyot va madaniyat bilan bir qatorda turadi.

Siyosat-murakkab ijtimoiy hodisadir. U tuzilish, jihatidan ikki turga – ichki va tashqi (halqaro) siyosatga boʻlinadi. Ichki siyosat – bu davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichkarisidagi amalga oshirgan faoliyatidir. Oʻz navbatida ichki siyosat ham umumxalq manfaatini oʻylaydigan taraqqiyparvar hamda bir guruh kishilar manfaatiga xizmat qiladigan reaksion boʻlishi mumkin. tashqi siyosat bu davlat idoralari siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari tomonidan xalqaro maydonda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Tashqi siyosat mamlakatning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqadi va unga xizmat qiladi. Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlari tinchlik va havfsizlikni taʼminlash uchun kurash oʻzaro manfaatdorlikka asoslangan.

2. Siyosat keng va koʻpqirrali faoliyat hisoblanadiki, u jamiyatning barcha sohalariga, yaʼni iqtisodiy, maʼnaviy, milliy va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga u yoki bu darajada taʼsir koʻrsatadi.

Siyosat iqtisodiy hayotga kuchli taʼsir koʻrsatadi. Biroq har qanday siyosat ham, iqtisodiy muammolarni hal etishning qudratli vositasi boʻla olmaydi. U qachonki jamiyat iqtisodiy rivojlanishining obʼektiv qonuniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilsa va ular kuchidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanilsa, shundagina iqtisodiy siyosat samarali natijalarga erishishi mumkin. Siyosat iqtisodga qanchalik kuchli taʼsir koʻrsatsa, iqtisod ham siyosatga shunchalik taʼsir koʻrsatadi. Iqtisodning siyosatga taʼsiri va uning

siyosatga nisbatan belgilovchi roli uning siyosatga nisbatan ustuvorligida ko'rinadi.

Siyosat jamiyatning sotsial (ijtimoiy) sohasiga ham ta'sir qiladi. Ma'lumki, jamiyatning sotsial sohasi ham uning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalari kabi keng qamrovli jarayondir. Keng ma'noda sotsial soha aholining turmush sharoitlarini, sinfiy va milliy munosabatlarni, shahar bilan qishloq o'rtasidagi munosabatlarni, jamiyat va shaxs oila-nikoh munosabatlarini aks ettiradi. Tor ma'noda esa aholining mehnat qilish va dam olish sharoitlarini: aholining uy-joylar bilan ta'minlanishi, ularning ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi, ularga ijtimoiy yoki yakka tartibda xizmat ko'rsatish sohalari kiradi.

Siyosat jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotida ham muhim rol o'ynaydi. Chunki davlatning siyosati u yoki bu darajada madaniyatni rivojlantirish, ommalarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Davlat fan va madaniyat xodimlarining faoliyatini yo'lga soladi, har tomonlama rag'batlantiradi, nazorat qiladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida madaniy sohadagi siyosat turli sohalarida olib borilmoqda. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat: xalq maorifini rivojlantirish; oliy va o'rta ta'lim tizimni takomillashtirish; milliy qadriyatlarni qayta tiklash; ijodning barcha turlarini takomillashtirib borish; adabiyot va san'atni yanada rivojlantirish.

Siyosat jamiyatning milliy munosabatlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilligini zarur shartlaridan biri millat ravnaqidir. Har bir xalq o'z madaniyatini o'z odamlariga qamiga moslashtirib rivojlantiradi. SHu bilan birga O'zbekistonda yashayotgan ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan. Hozir O'zbekistonda 100 dan ortiq milliy madaniy markazlar va ularning bo'limlari ishlab turibdi.

Siyosat jamiyat hayotining boshqa barcha sohalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Siyosat shahar bilan qishloq o'rtasidagi munosabatlar, mehnat va mehnat munosabatlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar va ularning amal qilishida yaqqol namoyon bo'ladi. CHunki bu munosabatlar siyosat ta'sirida boshqarilib, tartibga solib turiladi.

Siyosat jamiyatning harbiy sohasi va harbiy munosabatlarda ham aniq namoyon bo'ladi. Harbiy sohadagi mummolarni hal etish ko'p jihatdan siyosatga va uning samarali natijalariga bog'liqdir.

Tayanch iboralar:

Siyosat, G.Panton va P.Jim, G'arb siyosatshunosligi, J.Loski, Poliarxiya; Siyosatning keng ma'nosi, siyosatning tor ma'nosi, ichki siyosat, tashqi siyosat, taraqqiy parvar siyosat, reaksiya siyosat, siyosat va iqtisod, siyosat va madaniyat, ijtimoiy siyosat.

Savollar:

1. Siyosat keng ma'noda qanday mazmunga ega?
2. Tashqi siyosat deganda nimalarni tushunasiz?
3. Siyosat va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000 y.
5. Odilqoriev H. Qonstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: SHarq, 2002.
6. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000 y.
7. Politologiya. o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
8. Politologiya fanidan ma'ruza matnlari, 1-qism, Samarqand, 2000 y.
9. Odilqoriev X.T., Razzoqov D.H. Siyosatshunoslik. Toshkent, 2009.

6 – Mavzu: SIYOSIY MADANIYAT VA SIYOSIY ONG

Reja:

1. Siyosiy madaniyatning mohiyati va uning strukturasi
2. Siyosiy madaniyatning darajalari, modellari va turlari.
3. O'zbekiston milliy siyosiy madaniyatining tiklash zaruriyati va amaliyoti
4. Siyosiy ong tushunchasi manbai, shakllari va uning shakllanish omillari.

1. Siyosiy madaniyat-umumiy madaniyatning²¹, muhim turi, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab mustaqil ravishda o'z hatti-harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati. Oldindan ko'ra bilish iste'dodi, harakat yo'nalishini o'zgartirish, nazariy va amaliy yo'nalishlarni aniqlay olish, tafardorlar topish, ijtimoiy jarayonlarning tezligiga ta'sir o'tkazish, siyosiy madaniyatning jihatlaridan sanaladi²². Siyosiy madaniyat avvalom bor, katta va kichik ijtimoiy guruhlarining, umuman, insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida olgan siyosiy tajribasidir. Siyosiy madaniyat bir joyda qotib turmaydi, u doimo o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Ayni bir paytda siyosiy madaniyat bo'sh joyda, o'z-o'zidan paydo bo'lib ham qolmaydi. Siyosiy madaniyatning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar borki, biz bu haqda kiyinroq alohida to'xtalamiz.

Siyosiy madaniyat ilk tsivilizatsiyalar²³ davridayoq shakllana boshlagan bo'lsada, «Siyosiy madaniyat» termini ancha keyinroq paydo bo'ldi. Uning ilmiy muomalaga birinchi bo'lib, XVII asrda nemis faylasufi va ma'rifatlari Y.Gerder olib kirgan hisoblanadi.

Hozirgi zamon siyosatshunosligida birinchilardan, bo'lib «siyosiy madaniyat» tushunchasini ishlatgan amerikalik nazariyotchi X.Fayerning 1958 yilda bosilib chiqqan «Evropaning buyuk davlatlari boshqaruvi tizimi» nomli kitobi siyosiy madaniyatni mohiyatini anglash yo'lida qo'yilgan dastlabki muhim qadamlardan bo'lgan bo'lsa, undan sal keyinroq G.Almond va S.Verba

²¹. Qarang/ Madaniyat tushunchasiga ta'rif. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000. - B. 104-105.

²² O'sha asar, - B.191.

²³Odamlar belgilangan qonknlargat asoslangan yashagan shahar va davlatlarda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak darajasi.

besht mamlakat AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika, Italiya siyosiy jarayonlarini tadqiq qilish asosida 1963 yilda o'zlarining «Fuqarolik madaniyati» nomli kitobini e'lon qildilar. Shundan ikki yil keyin 1965 yilda L.Pay bilan S.Verba o'nta mamlakat siyosiy madaniyatini o'rganish asosida «Siyosiy madaniyat va siyosiy taraqqiyot» nomli asarini nashr qildilar. Mazkur ikki yirik ilmiy siyosiy madaniyatning hozirgi kontseptsiyasi shakllanishiga ish siyosiy turtki berdi..

Siyosiy madaniyatning hozirgi vaqtda ilmiy muomalada mavjud bo'lgan qo'yidagi talqinlarini keltirish mumkin. Siyosiy madaniyat bu o'ziga siyosiy ma'rifatni, siyosiy onglikni, hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir; siyosiy madaniyat bu o'z ichiga ijtimoiy siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo'lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma'naviy madaniyatning bir qismidir va hokazo.

Professor B.Tuychievning ta'biricha siyosiy madaniyat ijtimoiy ong va umumiy madaniyatning siyosiy institutlar hamda siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan qismi va jihatlarini qamrab oladi. Boshqa bir olim K.S. G'ajievning, fikricha siyosiy madaniyat – siyosiy hamjamiyat sub'ektlarining ko'pchiligi tomonidan etilgan normativ qadriyatlar tizimidir²⁴.

Siyosiy madaniyat o'ziga xos ichki tuzilishiga (strukturaga) ega bo'lib qo'yidagilar uning asosiy elementlari hisoblanadi: siyosiy tajriba; siyosiy ong; siyosiy xulq-atvor. O'z navbatida mazkur elementlarning o'zi bir qancha komponentlarni qamrab oladi. 1. Siyosiy tajriba: a) xalqining o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlari; b) mentaliteti; v) tarixiy xotirasi va an'analari; g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi. 2. Siyosiy ong: a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent; b) emotsionnal-psixologik komponentlardan iboratdir. 3. Siyosiy xulq-atvor: a) siyosiy vaziyat, jarayondagi hatti-harakat, faoliyat yo'nalish; b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlari, xususiyatlari.

2. Siyosiy madaniyat o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda turli darajalardan iborat hodisadir. Hozirgi zamon siyosatshunoslik fanining ko'pchilik nazariyotchilari siyosiy madaniyatning uchta darajasi borligi haqidagi fikrni yoqlaydilar. Bular: a) tafakkur qilish, anglash darajasi; b) fuqarolik darajasi; v) siyosiy daraja. Quyida ushbu darajalarning har biri

²⁴ Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati- T.: Sharq, 2002-B 86.

to'g'risida alohida to'xtashib o'tamiz. **Tafakkur qilish, anglash darajasi.** Mazkur darajada shaxs tomonidan siyosat dunyosida o'z o'rnini aniqlab olish, u yoki bu yo'nalishdagi siyosiy mo'ljallarni va siyosiy xulq-atvor normalarini aniqlab olish holati yuz beradi. Mazkur daraja o'zida keyinchilari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik darajasi: Bu darajada siyosiy madaniyatning o'zagi shakllanadi. Ushbu daraja odamlarning siyosiy hokimiyatga munosabatini belgilab beradi. Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, muqarrar ravishda unga siyosiy tizimga nisbatan munosabatlarini shakllantiradi. Siyosiy hokimiyatning o'zni rolini anglash natijasida, o'zining fuqarolik burchlari va majburiyatlarini ichki tuyg'usi bilan his qiladi. **Siyosiy daraja.** Mazkur darajada insonning siyosiy hodisaga munosabatlari shakllanib qadriyat darajasiga ko'tarila boshlaydi. Inson o'zining siyosatning sub'ekti sifatida qabul qila boshlaydi. Bu darajada inson va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning barcha jihatlari oydinlashadi.

Bugungi kunga kelib to'plangan ilmiy-nazariy bilimlar, manbaalarga tayangan holda siyosiy madaniyatning «totalitar-avtoritar» «liberal-demokratik» «sharqona siyosiy madaniyat» modellarini misol keltirish mumkin. Siyosiy madaniyatning **totalitar-atvoritar modeli** – birinchidan shunisi bilan xarakterlidir, unda shaxsning individual jihatlari sun'iy ravishda buziladi: ikkinchidan, jamiyatda siyosiy qadriyatlar va siyosiy ong markazlashgan tarzda davlat tomonidan shakllantiriladi va shuning asosida davlat manfaatlari inson ijtimoiy guruhlar manfaatidan ustun qo'yiladi; uchinchidan, jamiyatni siyosiy axborot bilan ta'minlanish hokimiyat tomonidan belgilanadi, siyosiy tsenzura amalga oshiriladi va hokazo. Siyosiy madaniyatning **liberal–demokratik modeli** – fuqarolar siyosiy huquq va erkinlarini huquq asosida yuqori darajada ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur model uchun qo'yidagi holatlar bevosita xarakterlidir: Birinchidan, jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari aksil markazlashtirilgan holda shakllantiriladi. Unga ko'ra davlat manfaatlarning ustuvorlik darajasi, uning jamiyat, shaxs, ijtimoiy guruhlar manfaatlari bilan qanchalik hamohangligiga bog'liqdir; ikkinchidan, jamiyat keng qamrovli axborot tizimidan foydalanadi va hoqazo. Ba'zi holatlarda (masalan tashqi tahdid, yoki ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz yoki boshqa salbiy holatlar berganda) liberal-demokratik siyosiy madaniyat modeli doirasida avtoritar-totalitar model elementlari jonlanishi mumkin. Siyosiy madaniyatning

yana bir modeli **sharqona siyosiy madaniyat modeli** bo'lib, u o'ziga sharq xalqlari jumladan o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni uyg'unlashtirgan. O'zbek xalqiga xos bo'lgan siyosiy madaniyatning o'ziga xos jihatlarida biri shuki, ajdodlarimiz siyosiy tafakkurida davlat rahbari siyosatidagi adolat va insof masalasi markaziy o'rinni egallagan. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Adolat va haqiqatga intilish halqimiz tabiatning eng muhim fazilatlaridan biridir». O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarini poydevorini tashkil etgan»²⁵.

Siyosiy madaniyatning modellari bilan bir qatorda uning turlari ham mavjuddir. Ular qo'yidagilardan iboratdir. 1. siyosiy madaniyatning «yopiq» turi-o'zining siyosiy jihatdan biquqligi bilan harakterlanadi. Siyosiy madaniyatning boshqa turlariga nisbatan murosasiz bo'lib, ularni inkor etadi. 2. siyosiy madaniyatning «ochiq» turi-siyosiy madaniyatning boshqa turlarini ijobiy qabul qila oladi. Ijtimoiy jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi. 3. siyosiy madaniyatning *patriarxal* turi unchalik rivojlanmagan boy ma'naviy madaniyatga ega bo'lmagan xalqlarga xos bo'lib, ular siyosiy qadriyatlar, siyosiy normalar va siyosiy institutlarga qiziqish bildirmaydi. 4. Faol siyosiy madaniyat turi – uning xususiyati shundaki, fuqarolar jamiyat siyosiy hayotiga faol ravishda shaxsiy aralashuvga intiladilar.

3. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimiz huquqiy demokratik davlatni, parovardida fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan bormoqda. Mustaqil yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar oxir-oqibatda xalqimizga farovon turmush tarzini yaratib berishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan «kuchli davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyat sari» g'oyasining asosida aynan mana shu xalqchil mohiyat yotadi. Kuchli jamiyatni shakllantirish, avvalombor, insonning jamiyatdagi o'rnini anglab etishi bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Bu o'rinda jamiyat a'zolarining siyosiy madaniyat darajasini yuksakligi ularning siyosiy faolligi yuqoriligi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Demak, siyosiy madaniyat omili mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi kundagi dolzarb vazifalarini ro'yobga chiqarishning eng asosiy vositasiga aylandi desak, xato

²⁵Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston, 1995, - B. 13..

qilmaymiz. Shuning uchun ham siyosiy madaniyat masalasining nazariy va amaliy jihatlariga bugungi kunda mamlakatimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu masalaning kontseptual asoslari Prezident I.A.Karimovning asarlarida, nutqlarida bizning jamiyatimizga tadbiqan echib berilgan. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan, Respublika Oliy Majlisining XVI – sessiyasida qilingan «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasida mamlakatimiz aholisining siyosiy madaniyati va siyosiy faoliyati bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgan²⁶.

Prezident I.A.Karimovning Oliy Majlis ikkinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida qilgan «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzasida ham mamlakatimiz hayoti, kelajagi uchun o'lgan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik rejalar belgilab berilgan va siyosiy madaniyat omilini har tomonlama rivojlantirishdan ko'zlangan yangi strategik maqsadlar ilmiy jihatdan yanada aniqroq asoslanadi. Prezident I.A.Karimov ushbu nutqda qo'yidagilarni ta'kidlagan edi: «Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur»²⁷.

Ma'lumki, jamiyat siyosiy madaniyatining shakllanishi ko'p omillarga bog'liq. Bunda yuqorida ta'kidlaganimizdek, milliy qadriyatlarni o'zni nihoyatda katta bo'ladi. Shu jihatdan olib qaraganda boy ma'naviy madaniyat, noyob milliy qadriyatlar, bebaho falsafiy ta'limotlardan bahra olib shakllangan siyosiy madaniyatning yuksak cho'qqilariga erishish uchun o'zbek xalqida o'lgan salohiyat mavjuddir. Jamiyatimiz siyosiy madaniyatining shakllanishda, mamlakatimizning milliy mafkurasi bugungi kunda etakchi o'rin egallamoqda.

Jamiyatimiz milliy mafkurasi odamlarimiz siyosiy madaniyatini shakllanishi va rivojlanishida asosiy mafkuraviy oziq bo'lib xizmat qiladi. Chunki siyosiy madaniyat ayni aniq paytda maslak asosida, inson o'zi tayanib yashaydigan qadriyatlar asosida shakllanadi.

4. Siyosiy ong tushunchasi mohiyati haqida gapirishdan oldin ong nima? degan, savolga javob topsak. Inson azaldan o'zigagina xos bo'lgan ongning nima ekanligi to'g'risida bahslashib keladi. Bu baholarning bir jihati, ong tabiat

²⁶ Qarang// Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000. – B.8..

²⁷Qarang// Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999.

mahsulimi yoki inson ongi ilohiy yaratilganmi, degan masaladan iborat. Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan oshishi tabiiy. Erda hayot chamasi 2-2,5 milliard yil ilgari paydo bo'lganligini keyingi paytlarda ilmiy dalillar tasdiqlaydi. Ongning vujudga kelishi va rivojlanishida mehnat hal qiluvchi omildir. Insonning eng asosiy o'rni va vazifasi deb, yozgan edi Beruniy – mehnat bilan belgilanadi, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishadi. Ongning muhim belgilaridan biri shuki, u tushunib etilgan bilishdir. Ong voqelikning ham oqilona, ham hissiy in'ikosini qamrab oladi. Shuningdek, u inson hissiyotlari ifodasini ham o'z ichiga oladi.

Siyosiy ong ham – ijtimoiy ongning bir turi bo'lib, u siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlarini aks ettiruvchi va kishilarning siyosiy munosabatlar sohasidagi xulq-atvorini yo'naltiruvchi tafakkurning namoyon bo'lishidir. Siyosiy ong – siyosiy nazariyalar, dasturlar, ta'limotlar tarzida, shuningdek siyosat haqidagi oddiy insoniy qarashlar tasavvurlar²⁸, a`nanalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Siyosiy ong – siyosiy fan tushunchalaridan biri. U o'zining mohiyati, manbai, funktsiyalariga ko'ra iqtisodiy, huquqiy, faslafiyl, axloqiy, estetik, diniy ongdan farq qiladi. Siyosiy ong – bu kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to'g'risidagi bilimlar tasavvurlar, e'tiqodlar. O'zlari yashab turgan siyosiy tizimga baho berishlari yig'indisidan iboratdir. Shuningdek, siyosiy ong – bu siyosiy madaniyatning elementlaridan biri hisoblanadi.

Siyosiy ongining shakllanishi va rivojlanishida qo'yidagi manbalar asosiy omil hisoblanadi: Birinchi manba – bu oilaviy muhitdir. Chunki aynan oilada siyosiy ongning poydevori barpo etiladi. Ikkinchi manba – bu keng ko'lamli siyosiy axborotdir. U inson ongiga muomala orqali hamda ommaviy axborot vositalari orqali kirib boradi. Uchinchi manba bu individning butun hayoti davomida to'plagan siyosiy tajribasidir. Shunday qilib, siyosiy ong muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy omillar, shart-sharoitlar negizida shakllanadi.

²⁸ Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati: T.: Sharq, 2002, - B. 85.

Tayanch iboralar:

Madaniyat, siyosiy madaniyat, siyosiy madaniyatning shakllanishi, elementlari, darajalari, modellari, turlari, O'zbekiston milliy-siyosiy madaniyati, totalitar, liberal-demokratik, sharqona modellar, siyosiy ong tushunchasi, shakllanishi, manbai.

Savollar:

1. Siyosiy madaniyat, siyosat va siyosiy barqarorlik tushunchalari o'rtasidagi ichki bog'liqlikni aniqlang?
2. Jamiyat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonida siyosiy madaniyatning o'rni va ahamiyati qay tarzda namoyon bo'lishini qiyosiy – siyosiy tahlil qiling?
3. Nima uchun O'zbekistonda milliy – siyosiy madaniyatni tiklash bugungi kunda zaruriyat hisoblanadi?
4. Siyosiy ong tushunchasi, manbai, shakllanishi omillari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
7. Politologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
8. Politologiya, o'quv qo'llanma, Toshkent, 2002 y.
9. Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: SHarq, 2002. y.
10. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2002.

7-Mavzu: MAFKURA VA SIYOSAT

Reja:

1. Siyosiy mafkura: tushunchasi va funktsiyalari.
2. Siyosiy mafkuralarning asosiy ko'rinishlari.

1. Siyosiy mafkura haqida gapirishdan oldin, mafkura nima? degan, savolga aniqlik kiritib olsak. Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar majmui.²⁹ Mafkura, jumladan milliy mafkura zamon talabi bilan takomillashib boradi. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Xalq, millat o'z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib, boyitib boradi. Chunki mafkura qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas. Bu uzluksiz jarayon bo'lib, hayot davom etar ekan, uning shiddatli sur'ati tufayli mafkuraning oldiga qo'yiladigan yangi - yangi talablar ham paydo bo'ladi»³⁰.

Siyosiy mafkura – siyosatshunoslik fanining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Siyosiy mafkura – u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi, hamda ko'proq miqdordagi kishilarning individual o'y fikrlari va hatti-harakatlarini hokimiyatdan foydalanishning muayyan maqsadlari va vazifalariga buysundirishni talab qiluvchi tizimlashgan g'oyalar, qarashlarning yig'indisidir. Qisqacha qilib aytganda, siyosiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishni yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy harakatning u yoki bu strategiyasining ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir.

Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyan funktsiyalarni bajaradi. Ulardan quyidagilarni ajratish mumkin 1. **Mo'ljallash**. Bu funktsiya shunda ifodalanadi, mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnaq, shaxs, hokimiyat haqidagi fundamental tasavvurlarni o'ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma'no-mazmuni tizimini va mo'ljalini ko'rsatib beradi. 2. **Safarbar etish**. Fozil jamiyat idealini taklif qila turib siyosiy mafkura siyosiy faoliyatning bevosita asosi sifatida chiqadi va

²⁹ Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2002. – B.106.

³⁰ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, T.: O'zbekiston, 2000. – B. 500-501.

uni amalga oshirish uchun jamiyatni, ijtimoiy guruhlarini safarbar qiladi. 3. **Birlashtirish.** Dunyoning fundamental chegarasida siyosiy harakatga maʼno-mazmun beradi. Siyosiy mafkura oʻzining miqyosi bilan har qanday individual yoki guruh manfaatlardan ustun turadi. Siyosiy mafkura xususiy manfaatlarga qarshi turadi va u bilan birlashtiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi. 4. amortizatsiyalash siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, oʻrtasida munofiqlik vujudga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi. 5. **Muayyan ijtimoiy** guruh manfaatlarini ifoda etish va himoyalash. Buning maʼnosi shuki, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy, guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularni boshqa guruhlar manfaatlariga qarama-qarshi qoʻyadi.

Siyosiy mafkuraning amal qilish darajalari bir xil emas. U nazariy kontseptual, dasturiy-direktivalik va xulq-atvorlik darajalarida amal qiladi. **Nazariy-kontseptual** darajada u yoki bu sinf, ijtimoiy qatlam, millat, davlatning manfaatlari va ideallarini ochib beruvchi asosiy qoidalar qaror toptiriladi; **dasturiy-direktivlik** darajada ijtimoiy – falsafiy printsiplar va ideallar siyosiy elitaning aniq dasturlari, shiorlari va talablariga aylantiriladi. Mafkura amal qilishning ushbu darajasi «siyosatning yaratuvchi elementi» deb ham talqin etiladi. Xulq-atvorlik darajasida mazkur mafkura maqsadlari va printsiplari fuqarolar tomonidan oʻzlashtiriladi, mafkura kishilarning hatti-harakatiga aylanib, ularni jipslashtiradi, safarbar etadi.

Agar biror mafkura oʻta siyosiylik bilan davlatda toʻla hukmronlik qilsa, u oʻsha davlatni inqirozga etaklaydi. Shuning uchun ham Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hech qaysi mafkura davlat mafkurasi boʻla olmasligi yozib qoʻyilgan.³¹

2. Siyosiy mafkura zamon va makondan tashqarida berilgan mavhum ruhiy hodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bogʻliq aniq ijtimoiy mazmunga ega boʻlgan maʼnaviy hodisadir.

Har bir tarixiy davr oʻziga xos va oʻziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas. Biz quyida hozirgi zamonning eng yirik mafkuraviy oqimlarini: liberalizm, konservatizm, sotsial-demokratiya va boshqalarni koʻrib chiqamiz.

³¹ Qarang// Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: Oʻzbekiston, 2008. – B.5.

Hozirgi zamonning eng yirik va ko'p tarqalgan mafkuraviy oqimlaridan **biri-liberalizmdir**. Bu atama lotincha «liberalis» so'zidan olingan bo'lib «erkin» degan ma'noni anglatadi.

Liberalizm XVII-XVIII asrlarda ma'rifatparvarlik davri g'oyalari negizida tarix sahnasiga chiqib kelayotgan burjuaziya sinfining mafkurasi sifatida shakllanadi. Bu mafkuraning asosi sifatida shakllanadi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari, J.Lokk, T.Gobbs, Sh.Montes'ke, A.Smit, T.Jefferson va boshqalarning asarlarida asolab berilgan.

Liberalizmning poydevorini shaxs erkinligi, uning barcha jamiyat institutlariga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi shaxsning ham o'z oldida ham jamiyat oldida o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi, kabi printsiplar tashkil etadi. Bu mafkura parlament tuzumining, muhim siyosiy muammolarini hal etishida, murosayu-madhora kelishuv tarafdoridir. Liberalizm hokimiyatning taqsimlanishi, siyosiy plyuralizm, qonun ustuvorligini e'tirof etadi. U fuqarolik huquqlari va erkinliklarining ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi deb biladi.

Mafkuraning har qanday ko'rinishi o'zgarmasdan qola olmasligi kabi liberalizm ham o'zgarmasdan qolmadi. U ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri ostida XX-asrning 30-yillarida **neoliberalizmga** o'tadi. Bu yangi mafkuraviy oqimning paydo bo'lishini tadqiqotchilar AQSH Prezident Franklin Rizvel'tning «Yangi yo'l» dasturi bilan bog'laydilar. Neoliberallar davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishi, faol ijtimoiy siyosat olib borishi zarurligini tan oladilar.

Hozirgi zamonning eng yirik mafkuraviy oqimlaridan yana biri **konservatizmdir**. Bu atama lotincha «konservaris» so'zidan kelib chiqan bo'lib saqlash qo'riqlash degan ma'noni anglatadi. Konservatizm XVIII asrda kelajak oldida hadiksaragan turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining ifodachisi liberalizmning qoralovchisi sifatida maydonga chiqdi. Ushbu tarafdorlarining fikricha zinapoya tarzidagi ijtimoiy tuzilishning yuqoridan (xudo tomonidan) o'rnatilganligiga hech qanday shubha yo'q va shuning uchun uni inson tomonidan o'zgartirib bo'lmaydi.

XX asrning 70-yillarida konservatizmning tarixida yangi davr – **neokonservatizm** (D.Bell, Z.Bjenskiy, N.Kristoll va boshqalar tomonidan asoslangan) boshlandi. Bu yangi oqimning paydo bo'lishini tadqiqotchilar AQSHda Ronal'd Reygan boshchiligidagi respublikachilar, Buyuk Britaniyada

Margaret Tetcher boshchiligidagi konservatorlar, GFRda Gel'mut Kol' boshchiligidagi XDI-XSI³² blokining hokimiyatga kelish bilan bog'laydilar.

Neokonservatizmning paydo bo'lishi taxodifiy emas. U neoliberalizm va sotsializmga qarshi turish maqsadida shakllantirildi. Neoliberalizm davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashishini zarurligini tan oladi va davlat ijtimoiy dasturlarining rivojlantirishni qo'llab-qo'vvatlaydi. Neokonservatizm esa davlatning iqtisodiyotga aralashishini cheklashni talab qiladi. Neokonservator qarashlariga ko'ra «eng yaxshi huqumat shuki, u kamroq boshqaradi».

Hozirgi zamonning eng ta'sirli mafkuraviy oqimlaridan **biri-sotsial – demokratiyadir**. Sotsial-demokratiya mafkurasi XIX asrning oxirida K.Kautskiy va e.Bernshteyn tomonidan asoslab berildi. Sotsial –demokratiya mafkurasiga binoan yangi jamiyatga sinfiy kurash orqali ya'ni inqilobiy yo'l bilan emas, balki tinch, evolyutsion yo'l bilan-burjua jamiyatini asta-sekin isloh qilish yo'li bilan o'tiladi. Ular davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga faol aralashishini, davlat ijtimoiy dasturini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydilar.

Jahonda sotsial-demokratiya mafkurasi negizida turli-tuman «sotsializm modellari» shakllandi. Bular ichida shved va german modeli eng obru qozondi. Germaniya va Shvetsiyada sotsial-demokratik partiyalar boshqaruvi davrida hayotning yuqori darajasi va sifatiga erishilgan.

Siyosiy mafkuralarning yana bir turi bo'lgan **ekologik-siyosiy** mafkuralar urushdan keyingi yillarda vujudga keldi va XX asrning 70-80 yillarida keng rivoj topdi. Ular inson yashaydigan atrof-muhitni himoya qilishni, kerakli qonunlar va qarorlar qabul qilish uchun o'zlarining hukumat va qonun chiqaruvchi organlariga ta'sir ko'rsatish orqali ekologiyani yaxshilashni maqsad qilib qo'yadi.

Diniy-siyosiy mafkuralar azaldan mavjuddir. Mafkuraning bu ko'rinishi diniy aqidalarga tayanadi. Bugungi kunda ko'pgina musulmon mamlakatlarida (Eron, Pokiston, Afg'oniston, Sudiya Arabistoni va boshqalar) ushbu mafkura siyosiy hukmronlikni o'rnatgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi o'z milliy istiqlol mafkurasiga ega. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Istiqlol mafkurasi ko'p millati O'zbekiston xalqining ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot

³²Xristian Demokratik ittifoqi- Xristian Sotsial ittifoqi.

barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi»³³.

Tayanch iboralar:

Siyosiy mafkura, siyosiy mafkuraning funktsiyalari, darajalari, ko'rinishlari, liberalizm, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, ekologik-siyosiy mafkuralar, diniy-siyosiy, mafkuralar, O'zbekistonning milliy-istiqlol mafkurasi.

Savollar:

1. Siyosiy mafkuralarning qanday funktsiyalari bor? Ularni izohlab bering?
2. Yuqorida qayd etilgan siyosiy mafkuralarning qaysi biri bugungi kunda davr talabiga mos keladi deb o'ylaysiz?
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyati haqida gapirib bering?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
6. Politologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston, 2000 y.
8. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati. Siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. T.: Sharq, 1998 y.
9. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000 y.

³³Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston, 2000. - B. 6.

8 – Mavzu: XALQARO TIZIM VA SIYOSAT. TASHQI SIYOSAT.

Reja:

1. Davlat va tashqi siyosat. Tashqi siyosatning maqsadi va vazifalari.
2. Jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining roli.

1. Bugungi kunda xalqaro tizimga munosabatlar, ularning huquqiy mezon va me'yorlarining noyoblighi hokimiyat muammosiga ham qandaydir o'ziga xoslik, xususiylilik bag'ishlaydi. Jumladan, xalqaro tizimida tashqi siyosat yuritish kuch ishlatish emas, balki ma'rifiy-siyosiy ta'sir o'tkazishga tayanib faoliyat ko'rsatishi davr talabi bo'lib qolmoqda. Tashqi siyosat davlatlarning xalqaro maydondagi o'rni va mavqeyini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Davlatlarning tashqi siyosati ob'ektiv siyosiy hodisa hisoblanadi. Tashqi siyosatning zarurligi har bir davlatning ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyojlar davlatlarning milliy manfaatlariga bog'liq hech bir davlat o'zining tashqi siyosatida boshqa davlatning manfaatini ustun qo'ymaydi. O'z navbatida u yoki bu davlatning milliy manfaatlari boshqa mamlakatlarning milliy manfaatlaridan ustun qo'yilmasligi lozim. Barcha davlatlar o'zining tashqi siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda ana shu talablarga rioya etishi zarur. Aks holda davlatlar o'rtasida qarama-qarshilik kelib chiqadi.

Davlatlar tashqi siyosatining zarurligi davlatlarning o'zaro munosabatda bo'lishi va o'zaro hamkorlikning turli xil shakllarda olib borishi bilan belgilanadi. Xalqaro munosabatlarda ro'y beradigan har qanday muammoning hal qilish birinchi navbatda davlatlar tashqi siyosiy faoliyati bilan bog'liq. Davlatlar tashqi siyosati va uning amal qilishga ichki va tashqi omillar ta'sir etadi. Ichki omillar ob'ektiv va sub'ektiv omillar mamlakatning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, tashqi siyosiy faoliyatning ko'pchilik sohalarida turli davlatlarning maqsadlari bir-biriga mos bo'lib tushadi. Bu hol ayniqsa tinchlik uchun kurash, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, umumbashariy muammolarni hal etishda yaqqol namoyon bo'ladi. Garchi davlatlar umumbashariy muammolarni o'z ichki siyosati orqali ishlab chiqsada, uni tashqi siyosat orqali amalga oshiradi.

Tashqi siyosat har bir davlatning boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashash ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va dunyoda barqarorlik, tinchlikka erishish ehtiyojlari ham davlatlar tashqi siyosatining zarurligidan kelib chiqadi. Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Tashqi siyosat-siyosatning o'zaro yo'nalishi sifatida xalqaro huquq va munosabatlarning tamomila bir-biriga o'xshash bo'lmagan sub'ektlari o'rtasidagi aloqalari boshqarishga qaratiladi. Bu aloqalarning umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishi tabiiyki, tashqi siyosatning qanday kuchlar tomonidan olib borilishiga bog'liq.

Siyosiy hokimiyat va siyosiy kuchlarning o'zgarishi tashqi siyosatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tashqi siyosatning o'zgarishi g'oyaviy kurashlarga ham bog'liq bo'ladi. Mustaqil va barqaror tinchlik uchun kurash, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik, yaxshi qo'shinchilik munosabatlarini rivojlantirish davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik kabi qoidalar hozirgi kunda mustaqil davlatlar tashqi siyosatining xususiyati bo'lib qoldi.

Davlatlarning ichki va tashqi siyosati o'zaro aloqada bo'lib, tashqi siyosat ham ichki siyosat kabi o'zgarib turadi. Sababi, jahon maydonida yangidan-yangi voqea va hodisalar ro'y berib turadi, ularga barcha siyosiy kuchlar bir xil munosabatda bo'lmaydilar. Bu hol shubhasiz, tashqi siyosatda ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi.

2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etmoqda, O'zbekiston Respublikasining asosiy huquqiy hujjati Konstitutsiyasida tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti hisoblanadi.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligini dastlabki yillarida yoq ishlab chiqilgan qo'yidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda: birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarini ustunligi; ikkinchidan, teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; to'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan

ustuvorligi; beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish³⁴.

Davlatlar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni tinch yo'l muzokaralar yo'li orqali hal etishda eng nufuzli halqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning o'rni kattadir. O'zbekiston Respublikasi o'zining hohish-irodasiga ko'ra, 1992 yil 2-martda BMTga qabul qilindi. O'zbekiston BMT Nizomini xalqaro huquqiy me'yorlarni, davlatlararo muomala qoidalari, shuningdek, BMT tarkibiga kiruvchi xalqaro talablarga rioya qilishini bildirdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi. 1993 yil fevralda Toshkentga BMTning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi. Prezident I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining minbaridan turib, O'zbekiston Respublikasi nomidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlardagi fikr va mulohazalarini bildirib kelmoqda. Masalan, 1993 – yil sentyabrda bo'lgan BMT Bosh Assambleyasining 48 – sessiyasida qilgan ma'ruzasida O'zbekistonning jahonga quhna va navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflarni o'rta qo'ydi. O'zbekiston BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda faol qatnashdi. Prezident I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 22-24 oktyabrda bo'lgan yubiley sessiyasida qatnashib nutq so'zladi. U o'z nutqida ommaviy qirg'in qurollari tarqatmaslik, qurol savdosini cheklash to'g'risida, BMTning tashkilotchilik ishini faollashtirish to'g'risida bir qator takliflar ilgari surdi. Xalqaro tashkilotlar va nufuzli tashkilotlar bu takliflarni ma'qulladilar, 2000 y yilning 8-sentyabrda Prezident I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining sessiyasida qatnashib nutq so'zladi.

O'zbekiston Respublikasi YUNESKO (BMTning fan va madaniyat ishlari bo'yicha bo'limi), Evropada Xavfsizlik Hamkorlik Tashkiloti (EHHT) va boshqa tashkilotlarga a'zo sifatida umumbashariy muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Tashqi siyosatda Konstitutsiyada belgilangan tamoyillarga amal qilmoqda.

³⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y -B.656

Prezident I.A.Karimov XXI asrda xalqaro munosabatlar to'g'risida shunday degan edi: «XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozasi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham shuningdek, umuman bugun sayyoramiz ko'lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb, hisoblamog zarur»³⁵.

O'zbekiston tashqi siyosatining ko'p tomonlama va ochiqligi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan mustahkam va o'zaro foydali munosabatlarini o'rnatishga qaratilgan yondashuvlarni belgilab beradi. Hozirgi vaqtda AQSH, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa davlatlar bilan teng huquqli hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Iqtisodiy omillar O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. Butun tashqi iqtisodiy faoliyatimizni tashkil etishni isloh qilishga to'g'ri keladi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvini ta'minlashga xalqaro moliyaviy iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va boshqalar ham katta yordam ko'rsatmoqda³⁶.

Tayanch iboralar:

Xalqaro tizim, davlat, tashqi siyosat, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, ichki siyosat, xalqaro xavfsizlik, o'zaro manfaatdorlik, o'zaro hamkorlik, tinch-totuv yashash tamoyili, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tamoyilari, xalqaro iqtisodiy aloqalar.

Savollar:

1. Har bir davlatning har tomonlama yuksalishida tashqi siyosat qanday ahamiyatga ega?
2. Ichki va tashqi siyosatni o'zaro aloqadorligi haqida gapirib bering?
3. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tamoyillarining mazmun-mohiyati nimada?

³⁵Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y -B.658.

³⁶ O'sha asar. - B. 661.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiatni demokratiyalashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
7. Politologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
8. Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod Moliya, 2006.
9. Tyurikov V., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y.

9 – mavzu: XALQARO TERRORIZM

Reja:

1. Xalqaro terrorizmning siyosiy hodisa ekanligi.
2. Terrorizm insoniyat hayotiga tahdid
3. Xalqaro terrorizmning bartaraf qilishda O'zbekiston omili.

1. Terrorizm – so'zi lotin tilidan qo'rqitish dahshatga solish degan ma'noni anglatadi. Terrorizm o'ta salbiy ijtimoiy hodisa sifatida qadimdan ma'lum. Qizig'i shundaki, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishish mumkin emasligini hisobga olgani holda terroristlar tarixning barcha davrlarida qaysi mintaqa yoki mamlakat hududida faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar har doim xalq ommasining ayrim qatlam va guruhlarining «yo'ldan urish» turli y yo'llar bilan ular qalbiga yo'l topish taktikasiga amal qilib kelganlar.

Terrorizmning bugungi holatiga keladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zining bir necha asrlar davomida sinovdan o'tgan, aholining ayrim qismini zaharlash yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritish amaliyotiga sodiq qolgani holda davrlar o'tishi bilan uning kurash shakli uslublari va vositalarini ustalik bilan o'zgartirib kelganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, bir zamonlar terrorchilar planetamizning turli joylarida alohida-alohida ya'ni bir-biridan ajralgan holda harakat qilgan bo'lsalar, bugungi kunda ular o'z faoliyatini mintaqaviy va hatto umumsayyoraviy darajada muvofiqlashtirish imkoniyatini qo'lga kiritayotganligini kuzatishimiz mumkin. Prezidentimiz talqini bilan aytadigan bo'lsak, bugun insoniyat terrorchilar misolida xalqaro miqyosda uyushmagan kerak bo'lsa bir yoki bir nechta qudratli markazlar tomonidan boshqarilayotgan siyosiylashgan jinoiy guruhlar shohidi bo'lmoqda.

Terrorizmning o'ta xavfli xalqaro siyosiy hodisaga aylanayotganligi to'g'risida gap borar ekan, uning asosiy sabablari qo'yidagi ob'ektiv umumsayyoraviy ijtimoiy siljishlar bilan belgilanayotganligini guvohi bo'lamiz. **Birinchi** asosiy sababi, XX asrning oxirgi o'n yilligida deyarli butun dunyoda terror yo'li bilan aholini tutqunlikda saqlash, uning ustidan hukmronlik qilish amaliyotiga batamom zid bo'lgan, demokratiyaning keng yoyilib borishi, ya'ni aksariyat mamlakatlarda siyosiy hokimiyat xalq hohish – irodasining ifodasi

degan tamoyilning ustuvorlik kasb etayotganligi bilan bog'liq bo'lsa, **ikkinchi** asosiy sabab, siyosat, iqtisod, ijtimoiy soha va madaniyatning turli sohalarida odamlarning ongi, dunyoqarashi, tafakkuri hamda mo'ljal va rejalariga salbiy ta'sir qiluvchi, hatto uni izdan chiqaruvchi jarayonlar, kuchayishi o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishning eng jirkanch yo'llarini axtarib yurgan guruhlar uchun noyob «siyosiy - ruhiy-makoni yaratilishga borib taqaladi».

Qaysi g'oyaga tayanmasin va qaysi hududda makon topmasin, bugun xalqaro terrorizmning qaysi bir ma'noda oqlashga urinish, o'lgan siyosiy xato bo'lib, ertaga insoniyat boshiga o'lgan falokatlar yog'dirishga sababchi bo'lishi shak-shubhasiz. Terrorizm tahdidan bizning Vatanimiz ham batamom kafolatlanganicha yo'q. «Bugungi kunda bizning mintaqamiz – deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov – shu hududda joylashgan mamlakatlarni demokratik, huquqiy, dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga, urinayotgan, turli xil ekstremistik kuchlar va markazlarning bu erdagi xavfsizlikka raxna solish uchun ko'z tikkan joyi bo'lib qolmoqda. Bu yovuz kuchlar, diniy ekstremizm³⁷ va xalqaro terrorchilikni mintaqamizga yoyishiga urinayotganligi shundan dalolat beradi»³⁸.

2. Terrorizm – insoniyat dushmani, taraqqiyot va yuksalish kushandasi. Terrorizm ma'lum bir guruhning shaxsiy manfaatlari, o'z orzu-umidlari va g'ayriinsoniy hatti-harakatlarining majmuasidir. Ayni paytda u ana shu maqsadlarni amalga oshirishligini bir necha marta ta'kidladi. Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; Xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida muammolarning ilmiy-nazariy echimini bayon etdi³⁹.

Prezident o'zining 2000 y yil 22 yanvar kuni Oliy Majlisning ikkinchi chaqirig'i birinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida davlatimiz tashqi siyosati va xavfsizlik strategiyasining ustuvorliklarini ta'qidlar ekan «Bugungi kunda bizning barcha tashabbus va sa'yi-harakatlarimiz mintaqamizga tajovuzko'rona hatti-harakatlar, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va xalqaro terrorchilikning yoyilish xavfi kuchayib berayotganligini keng jamoatchilikka tushuntirishga qaratilmoqda» - degan jiddiy fikrni o'rta tashladi. O'ziga xos geosiyosiy,

³⁷Dinniqobi ostida noqonuniy, ko'poruvchilik yo'li bilan siyosiy hokimiyatni egallashga urinish.

³⁸Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: O'zbekiston, 2000. – B. 8-29.

³⁹ Qarang// Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston. 1997 y.

geotarixiy mavqega ega bo'lgan O'zbekistonda islom dinini bayroq qilib, aslida esa bizning o'lgan ma'naviy tayanchimizni o'brusizlantirayotgan terrorchilar birgina biz uchun emas, balki dunyodagi barcha ilg'or, umidli xalqlar uchun o'ta xavfli tahdid ekanligi taboro oydinlashib bormoqda. Xalqaro terrorizmning mintaqamizda kerak bo'lsa sarhadlarimiz atrofida ana shu yo'nalish kasb etayotganligini anglab etish, unga nisbatan tarixiy-milliy va xududiy xususiyatlardan kelib chiqishi unga nisbatan olib borilayotgan safarbarlik, tayyorgarlik va chora-tadbirlarning naqadar chuqur o'ylanganligini isbotidir.

Davlatimiz tashqi siyosiy strategiyasini kuzatib borar ekanmiz, keyingi yillarda Prezidentimizning ushbu masalaga jiddiy va ustuvor ahamiyat berayotganligini guvohi bo'lamiz. U jumladan MDH davlatlari boshliqlarining sammitlarida, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Dushanbe va Bishkek uchrashuvlarida «Shanxay Hamkorligi» tashkiloti davlat boshliqlari uchrashuvlarida va qolaversa, jahon ommaviy axborot vositalari vakillari uchun uyushtirilgan matbuot konferentsiyalarida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm bir markazdan boshqarilayotganini mintaqa davlatlari bu ofatni birlashgan holda daf etish borasida zudlik bilan aniq chora-tadbirlar ko'rish lozimligini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonning janubiy hududiga suqilib kirgan bir guruh vatangado jangarilar to'dasiga qarshi kurash hamda Qirg'iziston hududiga yashirin yo'llar bilan kirib kelib, nafaqat Qirg'izistonga, balki O'zbekistonga ham bevosita havf solayotgan harbiy to'qnashuvlarga nisbatan qo'shni ittifoqdosh davlatlar va O'zbekiston o'rtasida qaror topayotgan yakdillikni amaldagi ko'rinishlari Prezident tomonidan olib borilayotgan siyosatning har tomonlama puxta o'ylanganligining isbotidir.

Shuningdek, O'zbekiston rahbariyati xalqaro terrorizmga qarshi kurashning boshqa muhim yo'l va vositalaridan ham unumli foydalanishga intilmoqda. Jumladan I.A.Karimov jahon hamjamiyati (1999 y Istanbul) va MDH tashkilotiga a'zo bo'lgan davlat rahbarlarining (2000 y y Moskva) e'tiborini xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markazga asos solish zarurligini alohida ta'kidladi. Ushbu tashabbus uning Rossiya davlat boshlig'i hamda mintaqa davlat rahbarlari bilan bo'lgan oliy darajadagi muzokaralarida ma'qullanib, bu borada aniq ishlar amlaga oshirilmoqda.

Tayanch iboralar:

Xalqaro terrorizm, chora-tadbirlar tizimi, geosiyosiy makon, mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro hamjamiyat, xavfsizlikka tahdid, xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy tashkilotlar, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizmga qarshi kurashda O'zbekistonning faolligi.

Savollar:

1. Terrorizmning siyosiy hodisa ekanligi nimalarda ko'rinadi?
2. Ko'pincha ba'zi siyosatshunoslar terrorizmni islom dini bilan bog'lashadi. Siz qanday fikrdasiz?
3. Aynan, O'zbekiston Respublikasi uchun xavf solgan va solayotgan terroristik markazlar haqida gapirib bering?
4. Terrorizm va diniy ekstremizmning o'zaro aloqadorligining misollar bilan isbotlab bering?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahddi, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y.
4. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
6. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engil mas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
8. Politologiya asoslari, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
9. Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod Moliya, 2006 y.

10 – mavzu: HOZIRGI ZAMON UMUMINSONIY MUAMMOLARINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Hozirgi zamon umuminsoniy muammolarining mohiyati va xususiyatlari.
2. Umuminsoniy muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari.
3. Umuminsoniy ekologik muammolar, ularni keskinlashuvi va sotsial iqtisodiy hamda siyosiy oqibatlar.

1. XX asr iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajasiga erishish bilan birga insoniyatni chuqur tahlikaga solgan murakkab muammolarni ham keltirib chiqardi. Bu muammolar ko'p jihatdan davlatlar olib borgan ichki va tashqi siyosatda yo'l qo'yilgan salbiy holatlar bilan belgilanadi. Umumbashariy muammolar hozirgi vaqtning eng keskin va jiddiy muammolardan biriga aylandi. Ular xilma-xil bo'lib, kelib chiqish sabablari va oqibatlariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Bu muammolar o'zining dahshatli zarari va og'ir oqibatlari bilan boshqa har qanday muammolardan keskin farq qiladi. Ular dunyoning katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik xalqlar va mamlakatlar hayotiga salbiy ta'sir qiladi. Bugungi kunda qo'yidagi umumbashariy muammolar insoniyatga jiddiy havf solmoqda: **Xavfsizlik muammosi**. Xalqlar va davlatlar tarixida bu muammo doimo katta ahamiyat kasb etib keladi. Ammo XX asrdagidek insoniyat tarixida keng ma'no aks etmagan. O'tgan asrda ro'y bergan ikkita jahon urushi, o'nlab mahalliy urushlar insoniyat boshiga ko'plab kulfatlar keltirdi. Yadroviy va boshqa qirg'in qurollarini ishlab chiqilganligi va zahiralarining to'planishi XX asr mahsulidir. Ma'lumki, ilgari jahonda ikki qarama-qarshi tizim SSSR va AQSH etakchi bo'lgan g'oyaviy jihatdan qarama-qarshi ikki blok mavjud edi. Dunyoning xavfsizlik tizimi ham xududi shu ikki blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. 1991 yilda SSSR parchalanib ketgach xalqaro maydonda yangi-g'oyat murakkab va qaltis bir davr yuzaga keldi. Davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat bo'zildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo'linish ro'y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joyda bo'lsa, endilikda mintaqaviy majoralar ustuvorlik qilmoqda. Keyingi vaqtlarda AQSH boshchiligidagi NATO tashkiloti bilan Rossiya, Xitoy kabi yirik mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ko'zga tashlanmoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda, AQSH va sobiq SSSR xududidagi yadro qurollarining talofat kuchi 60 ming megatonnani tashkil etadi. Olimlarning taxminicha, agar urush boshlanib, yadro qurollari qo'llaniladigan bo'lsa, bu holda faqat 12 ming megatonnagacha quvvatdan foydalanish kifoya. Solishtirish uchun ko'rsatish mumkinki ikkinchi, jahon urushida qo'llanilgan barcha portlash qurollarining quvvati atigi bir megatonnani tashkil etgan⁴⁰. Aynan O'zbekiston Respublikasi xavfsizligiga tahdid solayotgan muammolar Prezident I.A.Karimovning shu masalaga bag'ishlangan asarida bayon etilgan⁴¹: **tinchlik uchun** kurash muammosi. Bu barcha davrlarning o'tkr muammosi bo'lib keldi, hozir ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Barcha urushlar dunyoning turli joylarida bo'lsada, uning oqibatlari ko'pchilik xalqlar va davlatlar taqdiriga dahldordir. Masalan, AQSHning Iroqda olib borgan urushi neft' yoqilg'isini narxini oshishiga olib keldi, bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Prezident I.A.Karimov xalqaro tashkilotlarning minbaridan turib, mintaqaviy va umumsayyoraviy tinchlikni saqlash borasida o'z takliflarini bayon etmoqda; **ekologik muammo**. Atrof – muhitni ifloslanish tabiat va jamiyat uchun eng zararli hodisadir. Havo, tuproq, o'simlik, suv va hayvonat olamiga e'tiborsiz munosabatda bo'lish bu muammoni kelib chiqish va keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda ekologik muammodan holi bo'lgan, birorta ham davlat yo'q. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya'ni yalpi yadro urushi xavfli ancha qamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar xavfi tahlikasi holatda saqlanib qolmoqda»⁴² shu masalaga bag'ishlangan asarida bayon etilgan; **tinchlik uchun kurash** muammosi. Bu barcha davrlarning o'tkir muammosi bo'lib keldi, hozir ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Barcha urushlar dunyoning turli joylarida bo'lsada, uning oqibatlari ko'pchilik xalqlar va davlat taqdariga dahlordir. Masalan, AQSHning Iroqda olib borgan urushi neft' yoqilg'isini narxini oshishiga olib keldi, bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Prezident I.A.Karimov xalqaro tashkilotlarning minbaridan turib, mintaqaviy va umumsayyoraviy tinchlikni saqlash borasida

⁴⁰Jamolov L., Ahmedov A. Falsafa fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va tayyorlash uchun uslubiy ko'rsatma. Samarqand, 2007 y. – B.51-52.

⁴¹ Qarang// O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997 y.

⁴²Abdullaev M. va boshqalar Mustaqillik: Izohli-ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000.y –B. 243.

o'z takliflarini bayon etmoqda; **ekologik muammo**. Atrof-muhitni ifloslanishi tabiat va jamiyat uchun eng zararli hodisadir. Havo, tuproq, o'simlik, suv va hayvonat olamiga e'tiborsiz munosabatda bo'lish bu muammoni kelib chiqish va keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda ekologik muammodan holi bo'lgan birorta ham davlat yo'q. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. YA'ni yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar xavfi tahlikali holatda saqlanib qolmoqda» **kasallik muammosi**. Kasalikning barcha turi umumbashariy hisoblanmasdan, davolash imkoni murakkab yoki umuman yo'q bo'lgan kasalliklar umumbashariy mohiyat kasb etadi. Rak SPID (Orttirilgan immunitet tanqisligi, OITS) kabi ba'zi kasalliklar borki, ulardan qutulish uchun barcha davlatlar birgalikda kurash olib borish zarur. Keyingi vaqtlarda «Parranda gripi», «Cho'chqa gripi» deb atalgan. epidemiyalari ham jiddiy xavf soliqdagi, bunga barcha mamlakatlarda jumladan, O'zbekistonda ham zarur choralar ko'rilmoqda; **Ocharchilik** muammosi er yuzida insoniyat paydo bo'lgandan buyon ocharchilik eng murakkab muammo bo'lib qolmoqda. Ayrim mintaq va davlatlarda bu muammoni bir necha yuz yillarda hal qilish mumkin. XXI asrda ham insoniyat ocharchilik muammosidan xolos bo'lgani yo'q. Hozirgi vaqtda ayniqsa kam taraqqiy etgan mamlakatlarda odamlar ocharchilik va qashshoqlikdan nobud bo'lmoqda; **giyohvandlik muammosi**. XX asr oxirlarida giyohvandlik bitun jahon bo'ylab keng tarqaldi. Uning dahshatli oqibatlari jamiyat uchun juda qimmatga tushmoqda. Undan ayniqsa yoshlar jarblanmoqda. Hozirgi vaqtda savdo aloqalarining kengayishi giyohvandlikni jahon muammosiga aylanishiga olib keldi. Giyohvandlikka qarash davlatlar birgalikda kurash olib bormoqda. Dunyodagi narkotik (giyohvandlik) moddalarning 75 foizi faqat qo'shnimiz Afg'onistonda etishtirilayotganligi uning 90 foizi Evropaga tarqatilayotganligi achinarli holdir; **terrorizm muammosi**. (Ushbu muammo bugungi kunda eng dolzarb umumbashariy muammolardan bo'lib jahon jamoatchiligi unga qarshi kurash olib bormoqda. Ushbu muammo haqida alohida mavzu mavjud). Keyingi vaqtlarda yana bir yangi umumbashariy muammo **inson savdosi** muammosi yuzaga kelib, unga qarshi jahonda, jumladan, O'zbekistonda bir qancha qonunlar qabul qilindi.

2. Umumbashariy muammolar qanday turda va ko'rinishda bo'lmasin tabiat va jamiyat uchun mamlakatlar va xalqlarning osoyishta hayot kechirishi

uchun davlatlarning ichki va tashqi siyosati uchun xavfli hodisadir. Bu muammolar jahon tsivilizatsiyasini taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ular jamiyat hayotining barcha sohalarini jahon siyosati va iqtisodiyotini, davlatlararo va millatlararo munosabatlarni kishilarni yashash sharoitlarini, ommaviy ongini o'z ichiga qamrab olgan. Bu muammolar xilma-xil bo'lsada, umumiy xususiyatga ega bo'lib, yagona bir butun holda namoyon bo'ladi. Ularni hal etishga befarq qarash tsivilizatsiyasi holok bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu umumbashariy muammolarni bartaraf qilish yuzasidan jahon jamoatchiligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati o'z takliflarini bayon etmoqdalar. Ko'plab anjmunlar o'tkazilmoqda. O'zbekistonning tashabbusi bilan 1995 yil 15-16 sentyabr kunlari Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizligi va hamokrlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengash bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan, muxtor vakillar mintaqa xavfsizligini ta'minlash, majoralarni oldini olish, integratsiyasi jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan takliflarini aytdilar.

1997 – yil 15-16 sentyabr' kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona» mavzusida xalqaro Konferentsiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etishdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo davlatlari Tashqi ishlari vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Unda BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari, barcha davlatlar Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo etish tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va uni barpo etishga ko'maklashishiga chaqirildi. Bu mazkur mintaqa xafvsizligini mustahkamlashning eng kafolatli yo'llaridan biri edi.

1994-yil 28-30 sentyabrda Toshkentda EHHTning xalqaro anjumani o'tkazildi. Unda tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko'rib chiqildi. EHHT Toshkentda va Urganchda atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminarlar o'tkazdi. Mazkur xalqaro tashkilot Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. EHHTning 1996 yil dekabrda Lissabon sammitida XXI asr arafasida yalpi xavfsizlik modelini yaratish xususida munozara bo'ldi. O'zbekistonning majoralar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' etkazib berishini to'xtatish EHHTning muammolarni bartaraf etishda

Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma`qullandi va Lissabon Deklaratsiyasiga kiritildi.

1999 yilning 18-19 noyabr' kunlar Turkiyaning Istanbul shahrida EHHTning navbatdagi yig'ilishi bo'ldi. Anjumanda asosiy muhokama qilingan masala Evropada Xavfsizlik Xartiyasi bo'ldi. Xartiya nafaqat tashkilotga a'zo bo'lgan 54 mamlakatning balki butun dunyoning kelgusi asrdagi xavfsizligini ta'minlash borasidagi muhim hujjatdir. Ushbu anjumanda Prezident I.A.Karimov nutq so'zladi va jumladan shunday dedi: «Bugungi kunda xalqaro maydonda «sovuq urush» ko'rinishlari o'rini bir-biri bilan birlashib toboro keng ko'lamli hujumkor mohiyat, kasb etayotgan ashaddiy milliy davlatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi illatlar egallayotganligini, 20 yildan bayon fuqarolar urushi davom etayotgan Afg'oniston turli toifadagi xalqaro terroristlar va aqidaparastlar boshpana topib, tayyorgarlik ko'rayotgan sinov lageriga, asosan narkotik (giyohvandlik) moddalar etishtirish va sotishdan olingan daromad hisobiga kun ko'radigan mamlakatga aylanib qolganligini ta'kidladi va keng jamoatchilikni ushbu muammolarga qarshi birgalikda kurashishiga da'vat etdi».

O'zbekiston bilan Atlantika mamlakatlari tashkiloti – NATO o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud 1995-iyul' oyida O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga qo'shildi. Ushbu dastur doirasida 1995 yilda AQSHda, 1997 yilda Qozog'iston va O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy mashqlar O'zbekiston zobit va askarlarining harbiy tayyorgarligini yanada oshirishga xizmat qildi.

Prezident I.A.Karimov butun jahon jumladan, O'zbekiston uchun yana bir muammo «ma'naviy tahdid» xavf solayotganligini hamda unga qarshi kuralish zarurligini ta'kidlab shunday deydi: «Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf salmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday hurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglab etmoqda»⁴³.

3. XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, er yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida

⁴³Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 117.

tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, er, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida ekologik tanglik xavfi paydo bo'ldi⁴⁴.

Ma'lumki, jamiyat hayotiga motorlarning keng mo'lamda kirib kelishi XIX asrning oxiri – XX asrning ilk yillaridan boshlandi: keyingi yuz yil ichida dunyo motorlar olamiga aylandi: Hozirgi davrda jahon bo'yicha necha million avtomobil', paroxod, parovoz, samolyot va boshqa texnika vositalari hamda yonilg'ida ishlaydigan elektrostantsiyalar, isitish qurilmalari va hokazolarni sanab adog'iga etib bo'lmaydi. Yoqilg'i va yonilg'ida ishlaydigan har bir motor yoki motorli inshoot, aslida insonga kerakli kisloradni iste'mol qiluvchi raqibdir. Motorlar tutab bir tomondan, insonga engillik tug'dirsa-da, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni ifloslantiradi, inson yashayotgan muhitni izdan chiqarib, uni turli kasalliklarga duchor qiladi⁴⁵

Ekologik tanglik xavfi yuzaga kelishining **ikkinchi manbai** – kimyolashtirish, qishloq xo'jaligida chorvachilikda, sanoatda, transportda yaxshi ko'rsatkichlarga erishish maqsadida kimyoviy moddalardan keng foydanishdir. Buning oqibatida, ayniqsa sobiq SSSRda «rivojlangan sotsializmni takomillashtirish yillarida (1960-1985 y) kommunizm bu – butun mamlakatni kimyolashtirish va elektrlashdir» degan shior asosida ish olib borildi, mamlakat tuprog'i, suvi, havosi, misli ko'rilmagan darajada ifloslantirildi. Bu jarayon O'zbekistonda ham namoyon bo'ldi, sariq kasali bo'yicha respublikamizning jahonda «etakchi» o'ringa chiqishiga olib keldi turli kasalliklar keng tarqalishga olib keldi⁴⁶.

Ekologik tanglik xavfi o'sishining **uchinchi sababi** aholining talablari va unga ko'rsatiladigan maishiy xizmatning takomillashishi natijasida paydo bo'ladigan axlatning ko'payishidir (turli ishlatilgan qog'oz, karton quticha, butilka, oziq-vqat qoldiqlari va hokazolar)⁴⁷.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylandi. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi⁴⁸.

⁴⁴Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000, - B. 242.

⁴⁵ O'sha asar, - B.242-243.

⁴⁶ O'sha asar, - B.243.

⁴⁷ O'sha asar, - B.243.

⁴⁸Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999, - B. 505.

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning g'oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o'n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining barcha sohalari ekologik xatar ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir⁴⁹.

O'zbekistonda ekologik tanglik xavfi ayniqsa katta e'tiborni talab qiladi. O'zbekiston aholisi keyingi yuz yil ichida besh barobar o'sdi. Ammo bu hudud asosan ikki daryodan suv ichadi. Suvni ist'mol qilish esa O'zbekistonning nihoyatda issiq muhitida xizmat ko'rsatish madaniyati takomillashishi bilan, sug'oriladigan erlar sathi kengayishi sababli o'n besh barobar o'sdi. Ko'z o'ngimizda yuzaga kelayotgan bu nomutanosiblik ekologik sahvolni yanada jiddiylashtirishi mumkin. Bu muammoni hal etishda xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda (masalan «EKOSAN» tashkiloti yordamida) mintaqada joylashgan besh mustaqil davlatdan ekologiyani yaxshilashning strategik rejasini tuzish va shu asosda ish olib borishni taqozo qiladi⁵⁰.

Markaziy Osiyo davlat boshliqlari mintaqadagi ekologik muammo jumladan Orol muammosi, yuzasidan bir qancha uchrashuvlar o'tkazdi. Jumladan, 1993 yil 26 martda Qizil O'rdada (Qozog'iston) Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda Orolbuyi mummolarni hal etish, Orol mintaqasini sog'lomlashtirish va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining, ta'minlash to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi, havzasi muammolari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo Kengash tuzildi. 1994 yil 11 yanvarda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi ishtirokida ikkinchi konferentsiyasi bo'ldi. Anjumanda Orol buyida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin besh yil ichida bajarilishi lozim bo'lgan muayyan vazifalar belgilandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha davlatlararo kengash nizomi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat resurslar davlat muhofazasida ekanligi aks ettirilgan⁵¹.

⁴⁹ O'sha asar, - B.508.

⁵⁰ Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000, - B. 244.

⁵¹ Qarang// O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008, - B. 11.

Tayanch iboralar:

Umumbashariy muammolar, xavfsizlik, terrorizm muammosi, tinchlik uchun kurash mummosi, ekologik muammo, turli xil epidemiylar muammosi, ocharchilik muammosi, giyohvandlik muammosi, inson savdosi muammosi, ma`naviy tahdid, umumbashariy muammolarni hal etishda O'zbekistonni roli.

Savollar:

1. Xavfsizlik muammosi O'zbekiston Respublikasida qanday holatlarda ko'rinmoqda?
2. O'zbekiston Respublikasida qanday ekologik muammolar mavjud?
3. Xalqaro muammolarni bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati qanday takliflar bilan chiqmoqda?
4. Umumbashariy muammolarni bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi qaysi mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahddi, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y-B.658
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
5. Karimov I.A. YUksak ma`naviyat engil mas kuch. T.: Ma`naviyat, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
7. Politologiya, o'quv qo'llanma, Toshkent 1992 y.
8. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y y.
9. Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod Moliya, 2006.
10. Jamolov L., Ahmedov A. Falsafa fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va tayyorlash uchun. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2007 y.

1-Mavzu: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

Reja:

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'rganish zarurligi.
2. I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning nazariy asoslarini ishlab chiqilishi.
3. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining manbalari, predmeti, ob`ekti vazifalari, tushunchalar va qonuniyatlari.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining o'rganish zaruriyati mustaqillik sharoitida yurtimizda insonparvar demokratik jamiyat qurish ehtiyojlari natijasida yuzaga kelib o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi ilmiy bilimlarning majmui bo'lish bilan birga uning muayyan sohasiga oid g'oyalar tizimidir. Mustaqillik jahon taraqqiyotida o'zining qadimiy ilm-fan va adabiyot san`ati bilan o'lgan hissa qo'shgan o'zbek xalqi hayotida va yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar tarixiy hayotida ro'y bergan buyuk voqeadir. Bu aslini olganda qadimiy O'zbekistonning yangi tarixining mustamlakachilik azob-uqubatlari toabad qutilib ozodlikka chiqish erkin hayot kechirish o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lish davrini boshlab bergan tub burilishidir.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, fuqarolarning taqdiri, milliy-ma`naviy meros tarziga ega bo'lishi, milliy – ma`naviy meros bilan umumbashariy tamoyillarining uyg'unligini ta`minlash, davlatchilik qurilishining qanday asosda amalga oshirilishi bilan bog'liq edi. Ma`lumki, O'zbekiston Markaziy Osiyoda islom diniga e`tiqod qiluvchi eng qadimiy zaminlardan biri bo'lishi bilan birga, musulmonchilik islom olamida hamma tan olgan an`aalariga ham ega. Islom madaniyati bir necha asrlar davomida o'zbek xalqi ma`naviyatining asosi bo'lib kelgan, hozir ham shunday. Ammo O'zbekiston dunyoviy davlat qurish yo'lini tanladi. SHu bilan birgalikda mamlakatda hamma uchun, vijdon erkinligi kafolatlangan Prezident

I.A.Karimov ta`biri bilan aytganda O'zbekiston «bir qo'lda qur'on, bir qo'lda taraqqiyot» yo'lini tanladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish o'z mohiyatiga ko'ra umumjahon tsivilizatsiyasi yutuqlari va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga asoslangan. Yangi davr mustaqillikni mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda ma`naviyatni yuksaltirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Har bir fuqaro, birinchi navbatda mutaxassis kadrlar demokratik insonparvar jamiyat qurishnin og'ir sharaflari vazifa ekanligini, uning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, ularni hayotga tatbiq etishda o'z mehnati bilan qatnashishi zarur. Shu bois O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining yaxlit kurs sifatida o'rganishi hozirgi kunda mamlakatimiz boshidan kechirayotgan o'lgan o'zgarishlar davrining muhim talabidir.

O'zbekistonda qurilayotgan dunyoviy demokratik davlat qo'yidagi tamoyillarga tayanadi: inson huquqlari va suvereneti g'oyalariga asoslanadi; demokratiya va ijtimoiy adolat e`tiladi; xalqaro huquqning umume`tirof etilgan qoidalari tan olinadi; fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta`minlash maqsad qilinadi; insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo-etishni ko'zlaydi: o'zbek davlatchiligini tarixiy tajribasiga tayanadi; O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishning huquqiy asoslari uning Konstitutsiyasida belgilab qo'yiladi va unga tayanib ish olib boriladi.

O'zbekistonda qurilajak demokratik jamiyat xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «O'zbekiston – kelajagi, buyuk davlat. «Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu-insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e`tiqodlaridan qat`iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinlarini ta`minlab beradigan davlatdir»<sup>52</sup>. Hozirgi jamiyatning oldida turgan maqsadni ta`kidlar ekan I.A.Karimov yana shunday deydi «Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni qayta tiklanishi, insonning ma`naviy axloqiy barkamolligini ta`minlanishi kerak»⁵³.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani O'zbekiston tarixi, siyosatshunoslik, iqtisodiy nazariya, ma`naviyat asoslari,

⁵² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999, - B. 15.

⁵³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk davlat. T.: O'zbekiston, 1992, - B. 36.

madaniyatshunoslik, milliy istiqlol g'oyasi va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar xulosalariga tayanadi hamda ushbu fanlar bilan uzviy aloqada faoliyati yuritadi.

2. O'zbekiston o'zining bosh strategik maqsadi sifatida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdan iborat yo'lni tanlab, olganligini oshkora suratda butun dunyoga ma'lum qildi. Bu yo'lning mohiyati Prezident I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» (1992), «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» (1992 yil), «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» (1993 yil), «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999 yil), «O'zbekiston buyuk kelajak sari» (1999 yil) va boshqa ko'plab asarlarida ma'ruzalarida hamda nutqlarida nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishni xalqaro tamoyillari va dunyo hamjamiyati e'tirof etgan yo'riqlariga amal qiladi. Biroq ma'lum bir mamlakatda demoarktiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Yo'q? Chunki har bir xalqning o'z turmush tarzi, tarixiy an'anali, demokratiyaga yondashish usuli bor. Shu ma'noda Prezidentimiz «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demoarktik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy etadi» deganida demokratiyani joriy etishni yurtimizda o'ziga xos tamoyillari shakllanayotganligini ko'rsatadi.

Prezident O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning asl maqsadi xususida shunday degan edi: «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Biz tanlab olgan taraqqiyot yo'li konstitutsion asosga ega. Bu yil O'zbekistonning barcha aholisi manfaatlariga mos tushadi»⁵⁴.

Prezident I.A.Karimov davlatimizning yangilanishi yo'nalishlari va ko'lamlarini belgilab shunday deb yozadi. «Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, pirovard maqsad bo'lishi kerak. Siyosiy sohadagi muhim vazifalardan biri qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, va sud hokimiyatlari vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etishdir»⁵⁵.

⁵⁴ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y. – B. 179.

⁵⁵ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., O'zbekiston, 1992y. – B. 8.

Davlatning kuch-kudratli eng avvalo, fuqarolarning har tomonlama demokratik erkinligi bilan belgilanishi xususida Prezident I.A.Karimov shunday deydi: Davlatning kuch-qudrati-avvalo demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etish berish qobiliyati bilan o'lchanadi»⁵⁶.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demoarktik jamiyatni amalga oshirish uchun davlatimiz tomonidan qo'yidagi vazifalar belgilab olindi. **Siyosiy sohada:** Jamiyat hayotini qo'yidan to yuqori pog'onaga qadar demoakratiyalashtirish, uning izchiligi va samaradorligini ta'minlash. **Iqtisodiy sohada:** iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish; iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni mustaqilligini oshirish; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi barcha va har qanday to'siqlarni bartaraf etish. **Ijtimoiy sohada:** mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. **Ma'naviyat sohasida:** xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini, ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish; o'zlikni anglash, milliy ong, milliy vijdonni o'yg'otish va unga sayqal berish asosida xalqimiz ongida milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini shakllantirish; tariximizni, islom dini madaniyatini tiklash, ularni soxtalashtirish va siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslikdir.

Prezident I.A.Karimov O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatda eng avvalo, inson huquqlari ustuvorligi xususida shunday degan edi: «Biz demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lini tanlagan ekanmiz, inson huquqlari va erkinliklarini qaror toptirish masalalari bugun hayotimizda qay darajada o'z aksini topmoqda va shu talablarga to'liq javob berish uchun biz yana nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim, degan savollarni oldimizda qo'yishimiz tabiiy»⁵⁷.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani o'zining mantiqiy tuzilishiga hamda ilmiy tahlil usullari va vositalariga ko'ra mustahkam nazariy asos hamda manbalarga asoslanadi. Bu o'rinda Birlashgan

⁵⁶ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: O'zbekiston, 2000y. – B. 10..

⁵⁷ Mamashokirov S., Tog'ae'v Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y. – B. 32..

Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilgan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini keltirish mumkin. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident I.A.Karimovning asarlari, ma`ruzalari nutqlari hamda farmon va farmoyishlari shuningdek, ushbu masalaga taaluqli bo'lgan ilmiy asarlar matbuotda chop etilayotgan maqolalar risolalar ushbu fanning o'rganishning asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining **predmeti** mustaqil O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan demokratik jamiyatning shakllanishi qaror topishi, o'ziga xos jihatlari va amal qilish qonuniyatlarini tushuntirishdan iborat. Ushbu fanning ob`ekti O'zbekiston Respublikasi jamiyati hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini, o'rganish **uslublari** sirasiga nazariy-metodologik, dialektik, tajriba, qiyosiy-tahlil, tarixiylik, qiyosiy-tahlil, sistematik, emperik-sotsiologik va ilm-fanning boshqa zamonaviy uslublari kiradi. Ushbu fanning **vazifasi** sirasiga Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalariga demokratik jamiyat qurishning nazariy va amaliy masalalarini mustaqil O'zbekistonning bu boradagi yutuqlari Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan ijobiy ishlarni anglatish hamda talablarni ma`naviy barkamol, siyosiy tafakkuri yuksak, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabilar kiradi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanida qo'llaniladigan **tushunchalarni** o'rganishda qo'yidagi uchta jihatni hisobga olish kerak: 1. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalarni: Masalan: jamiyat, tsivilizatsiya, erkinlik, huquq, qonun, madaniyat, taraqqiyot, demokratiya, davlat, fuqarolar, shaxs, ma`naviyat, g'oya, mafkura va boshqalar. 2. Ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan yaqin bo'lgan tushunchalar: Masalan: huquqiy davlat, xususiy mulk, fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat, siyosat, siyosiy tizim, siyosiy hokimiyat, siyosiy ong, siyosiy tashkilotlar, siyosiy plyuralizm, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, ijtimoiy qatlam, ijtimoiy siyosat va hokazo. 3. Ko'proq O'zbekiston Respublikasi bilan bog'liq holda ishlatiladigan tushunchalar: Masalan: Taraqqiyotning «O'zbek modeli», iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning beshta tamoyili Prezident I.A.Karimov asarlari, ma`ruzalari, «mahalla» boshqaruv tizimi va boshqalar.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani umumiy qonuniyatlarga tayanadi va xususiy alohidalikni hisobga oladi. Bular qo'yidagilardan iboratdir: O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishda milliy xususiyatlarni hisobga olish qonuniyati; O'zbekistonda demokratik hamiyat qurilishning milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqlik qonuniyati; o'ziga xos xususiyatlarni O'zbekiston iqtisodi, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan aloqadorligi qonuniyati; O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishning umumbashariy qonuniyatlari.

Tayanch iboralar:

«O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li», Prezident I.A.Karimov asarlari, ma'ruzalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekistonda huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishi, «bir qo'lda qur'on, bir qo'lda taraqqiyot», ma'naviy qadriyatlarimiz.

Savollar:

1. Jahon tarixida dastlabki demokratik jamiyatni shakllanish borasida nimalarni bilasiz?
2. Nima uchun O'zbekistonda (Markaziy Osiyoda) yangi tarixning dastlabki davrlarida Evropa mamlakatlaridagi kabi demokratik jamiyat shakllanmagan?
3. Prezident I.A.Karimovning qaysi asar va ma'ruzalarida O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishining nazariy asoslari ko'rsatilgan?
4. O'zbekistonda demokrtaik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani qaysi ijtimoiy gumanitar fanlar bilan doimo aloqada.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.:O'zbekiston,1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahddi, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y-B.658
4. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat - T.: O'zbekiston, 1992 y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda - T.: O'zbekiston, 1999 y.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
8. Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Toshkent 2000 y y.
9. Mamashokirov S., Tog'aeu SH. erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y.

2- mavzu: O'TISH DAVRI NAZARIYASI VA UNING O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH JARAYONIDA NAMOYON BO'LISHI XUSUSIYATLARI

Reja:

1. O'tish davri tushunchasi, mohiyati va zarurati.
2. O'tish davrining «model»lari va ularning o'ziga xos xususiyati.
3. I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonning evolyutsion yo'l bilan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatga o'tishning nazariy asoslarini ishlab chiqilishi va nazariy asoslanishi.

1. O'tish davri barcha davlatlar taraqqiyoti jarayonida sodir bo'ladigan oraliq davr hisoblanadi. U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. Chunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq yuksak taraqqiyot darajasiga birdan ko'tarila olmaydi, balki u avvalo shakllanadi va ma'lum taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadilar.

Har bir davlatning vujudga kelishi, rivojlanishi va taraqqiyot darajasiga ko'tarilishi jarayoni olimlar tomonidan o'rganilgan va u bugungi kunda ham davom etmoqda. Ammo o'tish davri o'zi nima, nima uchun o'tish davri deb aytiladi? – degan savollarga ilmiy adabiyotlardan aniq javob topib bo'lmaydi. Zero, bugun yuksak rivojlangan yoki kam taraqqiy etgan yohud endigina rivojlanish tomon qadam tashlayotgan mamlakatlarning bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan, ikkinchisiga o'tish jarayoni, aynan ikkinchisida takrorlanmaydi. To'g'ri, o'tish davri uchun barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar ham mavjud. Ammo ularni amalga oshirish davlatlar va unda yashayotgan xalqlarning mentaliteti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Aslida o'tish davri nazariyasi deganda nimani tushunmoq kerak? O'tish davri nazariyasi deganda mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan, ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqich, uni o'rganish, tadqiq etish natijasida shakllangan ilmiy asoslangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Albatta berilayotgan bu ta'rif oxirgi haqiqat sifatida qabul qilinmasligi mumkin. Chunki o'tish davriga bo'lgan qarashlar rivojlanib borgan sari boshqa olimlar tomonidan to'lg'azib boriladi. Biz tomonizdan berilayotgan ta'rif ana shu yo'nalishdagi o'rinishlarimizning natijasi sifatida shakllanadi.

O'tish davriga munosabat bildirgan Germaniyalik Leonid Levitin shunday yozadi: «Tabiiyki o'tish davrlar turli xildagi tartibsiz jarayonlar bilan to'la postkommunistik o'tish davri – o'tish davrining ko'rinishlaridan biridir xolos. Insoniyat tarixida bunday davrlar ozmuncha yuz bermagan. Ular bir-biridan qanchalar salmoqli tafavutlar bilan farq qilmasin, biroq asosiy ma'nolari bitta-jamiatni uning iqtisodiyotini, siyosatini, madaniyatini zamonaviylashtirishdir».

Fikrimizcha, insoniyat tarixida bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga «o'tish davri»da (masalan, er egaligi jamiyatdan, industrial jamiyatga) siyosiy, iqtisodiy, fan-texnika va boshqa sohalarda rivojlanish, taraqqiyot kuzatiladi, ya'ni avvalgi tuzumga nisbatan, keyingi tuzum zamonga moslashadi. Shu nuqtai-nazardan ham Leonid Levitin o'tish davri «zamonaviylashtirish» mezonini sifatida qaralganligi haqidagi fikriga qo'shilish mumkin. Uning «Bunday zamonaviylashtirish muayyan jarayon yakun topguncha, ya'ni mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik darajasiga erishguncha bo'lgan davr» o'tish davri deb, ataladi»-degan ta'rifiga faqat zamon nuqtai - nazaridan qaralsagina to'g'ri bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan «kapitalistik» jamiyat shakllanmasdan, uning imkoniyatlari yuzaga kelmasdan turib er egaligi «feodalizm» jamiyatidan demokratik jamiyatga o'tib bo'lmasligi tajribada tasdiqlandi. Mamlakatlar «feodalizm», «kapitalizm»ni chetlab o'tib «kommunizm»ga o'ta olmasligini, sobiq SSSR va bir qancha «sotsialistik davlat» deb atalgan mamlakatlar misolida ko'rdik.

Yuqoridagi fikrlardan qo'yidagi xulosalarni chaqirish mumkin: **Birinchidan**, bugungi kungacha o'tish davrining mustaqil fundamental nazariyasi ishlab chiqilmagan. Buning oqibatida mamlakatlarning ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan uni «chetlab» demokratik jamiyatga o'tishga bo'lgan hatti-harakatlari samarasiz yakunlanmoqda; **ikkinchidan**, «feodalizm» (er egaligi) munosabatlari sharoitida yashayotgan mamlakatlarga «chetdan» demokratik jarayonlarni «eksport» qilinishi, ushbu mamlakat taraqqiyotini orqaga ketishga oshib kelishi mumkin: **uchinchidan**, «o'tish davri» ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga boshqa tuzumga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirish uchun ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi: to'rtinchidan, «o'tish davri qanchalik turli-tuman bo'lmasin, bari-bir barcha ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir.

Chunki u har bir yangi vujudga keladigan yangi jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi.

2. Yuqorida o'tish davrining tushunchasi, mohiyati va zarurligini, umumiy nazariya masalalarini ko'rib o'tdik. endi mamlakatlarning turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot bosqichlaridan demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatadigan jamiyatga o'tishni turli «model»lari, ularning o'ziga xos xususiyatlari borasida to'xtalamiz.

Demokratik jamiyatga o'tishda siyosiy sohada, davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi, uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob bera oladigan boshqaruv mexanizmlari shakllantiriladi. Iqtisodiy sohada, bozor munosabatlarini qaror topadi, taraqqiyot ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olish asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi, buni O'zbekiston Respublikasi misolida ko'radigan bo'lsak, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini – funktsiyalarning qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat⁵⁸. Ma'naviy – ma'rifiy sohada, inson omili, uning qadr-qimmati, yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi, jamiyatni yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi, bu sohani O'zbekiston Respublikasi misolida ko'radigan bo'lsak, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqqadas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir»⁵⁹.

Demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i «model»lari yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, har bir mamlakat nafaqat o'zining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari jihatidan biri ikkinchisidan farqlanadi, xuddi shuningdek, o'z xalqining mentaliteti, urf odatlari, qadriyatlari bilan ham farqlanadi. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi, unga harakat qilish hech qanday samara bermaydi, balki og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini

⁵⁸ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: O'zbekiston, 2000y. – B. 13.

⁵⁹ O'sha asar, - B.19.

tarixiy tajriba tasdiqlaydi. SHuning bilan birga demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan, siyosiy tizimni isloh qilish, bozor munosabatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-isloh qilish, bozor munosabatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoitlarini vujudga keltirish, jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi.

Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning o'tish davri tajribalariga asoslanib, o'tishning uchta asosiy yo'li yoki «model»i shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

Uning birinchisi **klassik** (an'anaviy) yo'l hisoblanadi. Bu yo'lning asosiy xususiyat shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi va o'tish davrining siyosiy sohada qancha buhronlar sodir bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlanadi, bu sohada muhim tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi. Xuddi ana shu tadbirning muvaffaqiyati ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalarda ham islohotlarning amalga oshirilish imkonini beradi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayonning harakterli tomoni shundaki: iqtisodiy sohada xususiy mulkchilikning rivojlanishidan, aholining aksariyat ko'pchilik qismi rozi bo'lmaydi. Chunki asosiy moddiy boylik bir qism odamlar qo'lida to'planadi, boshqalar esa ularga qaram bo'lib qolidilar, oqibatda mamlakatda fuqarolar urushi bo'lishi mumkin.

Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi, **inqilobiy** yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarga vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat, aksariyat ko'pchilik aholining turmush tarziga nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab mamlakat siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. Ya'ni amaldagi hokimiyat shakli barobar bo'ladi va uning o'rniga yangi demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan hokimiyat shakli va uning infrostrukturasi vujudga keladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy hayotda keskin islohotlar o'tkazadi, xususan amaldagi milliy valyuta bekor qilinadi. Aholining qo'lidagi pul mablag'lar ham o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy hayotida bo'lgani kabi iqtisodiy hayotda ham demokratik jarayonlarining rivojlanishi bo'ladi. Mamlakatda intellektual salohiyatli ma'lum bir qatlam etakchi siyosiy kuchga aylanib, xalq hokimiyatdan ko'ra

ularga inshonadi, ularga ergashadi. Ular ommoni uyushtiradi va demokratik jarayonlarga yo'naltiradi.

Demokratik jamiyatga o'tishning uchinchi, **evolyutsion** yoki bosqichma-bosqich yo'li hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, mamlakatdagi amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, uning o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan eskisi keskin, bir «zarb» bilan tugatilmasdan bosqichma-bosqich vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Iqtisodiy islohotlar hal bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bu yo'nalishida yangi munosabatlar shakllantiriladi.

Ushbu yo'l bugun o'z mustaqilligini qo'lga kiritib mustaqil taraqqiyot yo'liga kirayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun yaxshi samara beradigan yo'l hisoblanadi. Ular hozir taraqqiyotning qanday bosqichlarida bo'lishlariga qaramasdan, taraqqiyotning barcha bosqichlarini o'z boshlaridan kechirishlari umumiy qonuniyat bo'lganligi demokratik taraqqiyot bosqichiga ham tabiiy yo'ldan borishni bosh yo'nalish sifatida belgilab olsagina va unga real amal qilsagina pirovard maqsadga erishishlari mumkin.

3. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin sobiq ittifoqdagi Rossiya, Ukraina, Qozog'iston kabi mamlakatlardan farqli o'laroq o'tish davrining inqilobiy yo'lini rad etib, evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'lini tanladi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos va o'ziga mos tarzda evolyutsion yo'li bilan amalga oshirilishining nazariy asoslari Prezident I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kabi ko'plab asarlarida, ma'ruzalarida o'z aksini topgan.

Bu yo'lning asosiy mohiyati Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda⁶⁰ o'z ifodasini topgan. Bu tamoyillar qo'yidagilardan iborat. 1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustovorligi, 2. Davlatning bosh islohotchi ekanligi. 3. Jamiyatda qonun ustovorligi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat. 5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish. Ushbu tamoyillar Prezident I.A.Karimovning jahon mamlakatlari tajribalarini tahlil qilishi asosida ilgari surildi va O'zbekistonga xos o'tish davri «model»ini ishlab chiqishda uning dunyodagi bironta davlatlardagi «model»larga aynan o'xshamasligiga asosiy e'tibor qaratildi.

⁶⁰ Qarang // Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston, 1993.

O'tish davrining O'zbekiston Respublikasi uchun, oson kechmasligini yaxshi anglagan Prezident I.A.Karimov shunday deydi: «O'tish davri muammolarining yig'indisi va xususiyatlari bir vaqtning o'zida bir qator g'oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni taqozo qiladi»⁶¹.

O'tish davrining birinchi bosqichi isloh qilish jarayonining kiyinchiliklarni, ayni vaqtda tabiiy iqtisodiy munosabatlarni tiklashga yondashishlar bir xilandozada va odatiy emasligini ko'rsatdi⁶².

Birinchi bosqich butunlay yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini yaratishga davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga eskicha fikrlash tarzlarini ongimizdan chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Bu bosqichda yangi tuzum uchun ishonchli poydevor yaratish vazifasi qo'yildi va hal qilindi⁶³.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan kontsepsiya (tamoyil) mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy beqarorlikning vujudga kelishining, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayib ketishning, aholining murakkab vaziyatga tushib qolishning oldini olish imkonini berdi. Ular o'z navbatida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklarni sobit qadamlik bilan hal qilishda muhim rol' o'ynadi va boshlangan islohotlar o'z samarasini bera boshladi. O'zbekistonning o'tish davri muammolarini hal qilishning o'ziga xos strategiyasi jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilib uni «o'zbek modeli» nomi bilan aytila boshlandi. «O'zbek modeli» deganda, o'zbek millatning o'ziga xos mentaliteti, urf-odatlar, an'analari, qadriyatlarini, aholining milliy tarkibi, O'zbekistonning geostrategik holati va boshqa bir qator omillarni hisobga olishga asoslangan demokratik jamiyat qurish shakli tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ularning har biri Prezident I.A.Karimov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining – birinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida (1999 yil 29 avgust) «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarini chuqurlashtirishning muhim vazifalari», birinchi chaqiriq o'n to'rtinchi sessiyasida (1993 yil 14 aprel'), «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», va nihoyat ikkinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida (2002 yil, avgust), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» nomi ma'ruzalarida ko'rsatib berildi.

Albatta, ana shu bosqichlar biri ikkinchisidan keskin farq qilmasa-da ulardagi asosiy g'oya demokratik jarayonlarning olg'a tomon rivojlanishini va ma'lum bir vaqtda kelganda bu jarayonga yangi kuch, qudrat faollik baxsh etishidadir.

⁶¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999, - B.74.

⁶² O'sha asar, - B.185.

⁶³ O'sha asar, - B.185.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning vazifalarini amalga oshirishdan iborat o'tish davri davom etmoqda.

Tayanch iboralar:

Demokratik jamiyatga o'tishning mohiyati va zaruriyati, umumiy qonuniyatlar, o'tish davrining klassik (an'anaviy) yo'li, «o'tish» davrining inqilobiy yo'li, «o'tish» davrining evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'li, xalqimizning qadriyatlari, Prezident I.A.Karimov asarlari, «o'tish» davrining uch bosqichi.

Savollar:

1. O'tish davrining klassik (an'anaviy) yo'li haqida nimalarni bilasiz?
2. O'tish davrining inqilobiy yo'li haqida nimalarni bilasiz?
3. O'tish davrining evolyutsion yoki bosqichma –bosqich yo'li haqida nimalarni bilasiz?
4. Nima uchun O'zbekistonda o'tish davrining evolyutsion ya'ni bosqichma-bosqich yo'li tanlangan?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li - T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston, 1993.
3. Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov – yangi O'zbekiston Prezidenti. – Vena, 1996, T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999 y-B.658
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: O'zbekiston, 2000 y. 13 b.
7. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engil mas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T.: O'zbekiston, 2008 y.
10. Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2000 y.
11. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod, Moliya, 2006.

3-Mavzu: MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYATGA O'TISHNING «O'ZBEKISTON MODELI»

Reja:

1. Mustaqillik – milliy taraqqiyot va demokratik jamiyatga o'tish uchun imkoniyatlar makoni.
2. Demokratik jamiyatga o'tishning turli xil modellari, «O'zbekiston modeli» uning milliy, umumbashariy tamoyillari.
3. Demokratik jamiyatda inson erkinligi huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi.

1. Ma'lumki, mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sobiq ittifoq imperiyasi va kommunistik tuzum mafkurasi hamda «demokratik siyosiy tizim» deb nomlanib, hattoki, ushbu boshqaruv tizimni Konstitutsiyada ham o'z aksini topsada, aslida davlat va jamiyatning barcha jabhalarida kommunistik partiyaning yakka hukmronligi o'rnatilgan mustabid hokimiyat, xalqimizning milliy taraqqiyotiga, qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

Insoniyat XX arsning so'nggi o'n yilligidan boshlab, yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi va istiqboldagi rivojlanishining yangi yo'nalishlarini belgilab olmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalariga doir an'anaviy shakllangan tushunchalar mazmuni, ko'lami, xarakteri gorizontal va vertikal yo'nalishlarda o'zgarmoqda. Bu dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jarayonlarning globallashuvi, integratsiyalashuvida o'z ifodasini topmoqda, Mustabid sovet davlatining tannazulga uchrashi natijasida yuzaga kelgan siyosiy vaziyat, Prezident I.A.Karimovning qat'iy sa'iyharakati natijasida (Mustabid sovet davlatning parchalanishida mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishida asrlar mobaynida ozodlik uchun kurashgan jasur millat farzandlarining ham hissasi bor) O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqillik ilmiy taraqqiyot demokratik jamiyatga o'tish uchun imkoniyatlar makoni yuzaga keldi. Aynan ana shunday jarayonlarda, millatning O'zbekiston davlatining jahon hamjamiyatida munosib o'rin topishiga bo'lgan intilishi kuchaymoqda⁶⁴.

⁶⁴Mamashokirov S., Tog'aeV Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y. – B. 28.

«Biz demokratik jamiyat barpo etish maqsadi sari qadamlarimizni kimgadir. Yaxshi ko'rinish, kimgadir hisobot berish va soxta obro' topish uchun emas, avvalo xalqimizning hohish-irodasi bilan tanlab olgan, milliy manfaatlarimizga javob beradigan manzilga bosqichma-bosqich rivojlanish yo'li bilan etib borish uchun qo'ymoqdamiz. Va ana shu yo'limizdan aslo qaytmamiz⁶⁵»

Istiqlol tufayli yangilanish va bunyodkorlik yo'lidan borayotgan millat va davlat jamiyat boshqaruvining o'ziga xos milliy, tarixiy tajribalariga asoslanadi. Boshqacha aytganda demokratik milliy davlatchilikning tarixiy boshqaruv merosi, tajribalari bugungi kunda davlat siyosatning ustuvor vazifalarini belgilab bermoqda. Qolaversa, O'zbekistonda mustaqillikka erishilgandan keyin demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishining kontseptual asoslari yaratilishi bilan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarilishda tarixiy, milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj ham, talab ham ortib bormoqda. Chunki jamiyat hayotida demokratik tamoyillarning qaror topishi va ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga singib borishi yangi tipdagi insonning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda⁶⁶. Xullas, Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov boshchiligida milliy taraqqiyotga va huquqiy demokratik davlat qurishga faol kirishdi.

2. Demokratiya – qadimiy yunon tilida «demos» - xalq va «krafos» - hokimiyat degan, ma'noni anglatadi. Jamiyat taraqqiyotida davlatchilikning turli shakllari, binobarin demokratiyaning ham turli tiplari yaratilgan. Demokratiya tushunchasining shakl va mazmuni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bog'liq holda shakllanib o'zgarib boradi. Insoniyat tarixida demokratiyaning boshlanish nuqtasi ham, tugash nuqtasi ham yo'q. Demokratiyani bo'g'ish mumkin, lekin butunlay yo'q qilib bo'lmaydi⁶⁷.

Demokratiya so'zi va ilk quldorlikka asoslangan demokratik jamiyat mil.av. V asrda qadimgi Afinada paydo bo'lgan. Bugungi kunda demokratiyaning umumjahon miqyosida tan olingan qo'yidagi tamoyillari mavjud: Har bir insonning o'z hohish irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi; ozchilikni ko'pchilikka buysunishi; barcha fuqarolarning millati elati,

⁶⁵ Qarang // Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat // O'zbekiston Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2005 y. 10 dekabr'

⁶⁶ Mamashokirov S., Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y. – B. 29.

⁶⁷ Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y. – B. 51.

ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar teng huquqliligi; davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi; davlat asosiy boshqaruv organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berib turishi va hokazo.

Sharqona – demokratiya – demokratiya tushunchasining ajarlmas tarkibiy qismi bo'lib, Sharq mamlakatlari asosan aholisini ko'pchilik qismi musulmon ma'naviyatidan bahra olgan hududlarga xos bo'lgan demokratik qoidalar majmuaning o'ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo'lishidir. SHarqona demokratiya milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslangan faoliyatdir. Ana shu xususiyatlari bilan ushbu ijtimoiy tushuncha G'arb demokratiyasidan farq qiladi. Bundan tashqari, sharqona demokratiya siyosiy tartibsizliklar mitingbozlikni milliy manfaatga zid deb qaraydi hamda jamiyat va davlatning ichki masalalari – har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralagan holda o'z faoliyatini o'ziga xos madaniyat tamoyillari asosida yo'lga qo'yadi⁶⁸.

Mustaqillik yo'liga chiqqan O'zbekiston demokratiya sohasida o'ziga xos, o'ziga mos bu borada ilg'or mamlakatlarning SHarq va G'arb demokratiyasining barcha ijobiy jihatlarini o'tmishda ulug' ajdodlarimiz qoldirgan pand-nasihatlarni va xalqimiz an'analarini, milliy mentalitetimizning tarixan tashkil topgan xususiyatlarini, jamiyatshunos olimlarimizning yangi xulosa va fikrlarini o'zida mujassaslashtirgan demokratiyani yuzaga keltirmoqda. O'zbek xalqi asrlar bo'yi orzu qilib kelgan haqiqiy demokratiyaga mustaqillik to'fayli erishmoqda. O'zbekiston davlatida barpo erishgan demokratiya yangi tipdagi demokratiya bo'lib, tariximizda yangi davr boshlanganidan hamda mustaqillik va istiqlol tantana qilishdan darak beradi⁶⁹.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalq bo'lib, davlat xalqining irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Mamlakatimizda demokratiya ikki turda: 1. Vakillik demokratiyasi ya'ni fuqarolar o'zlari saylagan vakillar – deputatlar orqali davlat va jamiyatning muhim masalalarni, hal etadilar. 2 Bevosita demokratiya – bunda fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari mehnat jamoalari va fuqarolarning yig'inlari, referendumlar, qonun loyihalari, muhokamalari, ayrim masalalar bo'yicha

⁶⁸ O'sha asar, - B.241.

⁶⁹ O'sha asar, - B.154-155.

fikrlarini so'rov yo'li bilan aniqlash kabi davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini bevosita hal etadilar⁷⁰.

3. Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki, unda xalq hokimiyati, ya'ni ozchilikning ko'pchilik buysunishi qoidalari rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqligi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotning asosiy qonuni ushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi. SHunga qaramay demokratiya tamoyillari ko'p hollarda, og'zaki va targ'ibot qiluvchi ishlar sifatida qoladi. CHunki jamiyatda fuqarolarning iqtisodiy tengligi mavjud bo'lmasa ularning ijtimoiy tengligi ham mavjud bo'lmaydi⁷¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqaroning huquqiy holatini belgilashda, inson huquqlari ustuvorligi davlat va fuqaroning o'zaro siyosiy-huquqiy aloqadorligi hamda mas'ulligi printsiplariga asoslanuvchi tamomila yangi kontseptsiyaga tayangandir. «Inson huquqlari» kategoriyasi ilk bor konstitutsiviy darajada mustahkamlanib. Asosiy qonunimizning muqaddimasidayoq o'z ta'kid va tasdig'ini topdi. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov Asosiy Qonunimiz qabul qilinishi munosabati bilan parlament XI sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda ... jamiki dunyoviy ne'metlar orasida eng ulug'i – **inson** degan fikrni ilgari surdik va shu asosda, «**fuqaro** – jamiyat - davlat» o'rtasi»dagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy echimini topishga intildik⁷².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan ikkinchi bo'limi, «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi»ning (1948 yil 10 dekabr) barcha printsiplari hamda qoidalarga to'la-to'kis muvofiqdir. Agar umumjahon deklaratsiyasining ichki mazmuni, unda e'tirof etilgan huquq va erkinliklar ko'lamiga e'tibor beradigan bo'lsak ularni to'rt yo'nalishga ajratish mumkin: a) tabiiy hamda umuminsoniy huquq va erkinliklar; b) umumfuqaroviy shaxsiy huquq va erkinliklar; v) siyosiy huquq va erkinliklar; g) iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklar.⁷³

⁷⁰ O'sha asar, - B.154 .

⁷¹ Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: SHarq, 2002. – B. 138.

⁷² Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y. – B. 51-52.

⁷³ O'sha asar – B. 140.

O'zbekiston Respublikasi ham mustaqil davlat sifatida dunyodagi demokratik davlatlar kabi o'z fuqarolari uchun Deklaratsiyada sanab o'tilgan huquq va erkinliklarni ta'minlashni o'z zimmasiga oldi. Mazkur iroda, qat'iy mamlakatimiz Konstitutsiyasida o'z aksini topdi. Konstitutsiyada inson (fuqaro) huquq, erkinlik va burchlariga oid umumiy qoidalar (18-22 moddalar); shaxsiy (shu jumladan insonning tabiiy va ajralmas huquqlari) huquq va erkinliklar (24-31 moddalar); fuqarolarning siyosiy huquqlari (32-35 moddalar); inson huquqlari va erkinliklarning kafolatlari (43-46 moddalar) mustahkamlangan. Umumiy qoidalarni hisobga olmaganda Asosiy qonunimiz 23 ta moddasida (ya'ni 24-46 moddalar) inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari e'tirof etilgan. Konstitutsiyaning atigi oltita moddasida (47-52 moddalar) fuqarolarning burch va majburiyatlari ifodalangan⁷⁴.

Tayanch iboralar:

Mustaqillik, demokratik jamiyat, sharqona demokratiya, fuqarolik jamiyati, xalq hokimiyati, qadimgi Afina qurdorlik demokratiyasi, g'arb demokratiyasi, Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, huquq va erkinliklar, inson huquqlari

Savollar:

1. Sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekistonning siyosiy tizimi qanday edi?
2. Demokratik jamiyat qurishning qanday modellarini bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan demokratik jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilgan fuqarolarning erkinligi, huquqlari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992 y.
2. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalar. T.: O'zbekiston, 1996 y.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.

⁷⁴ O'sha asar – B. 140.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008 y.
5. Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2000 y y.
6. Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: SHarq, 2002 y.
7. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y y.
8. Mamashokirov S. Tog'aeв Sh. erkin va farovon hayot qurishning g'oyaviy – mafkuraviy masalalari. T.: Ma`naviyat., 2007 y.

4 – Mavzu: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA KUCHLI IJTIMOY HIMOYA VA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARI

Reja:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy adolat va kuchli ijtimoiy himoya va g'oyalarining rivoji.
2. O'zbekiston ijtimoiy g'oyasining adolat va liberal demokratiya g'oyalari bilan bog'liqligi.
3. O'zbekistonda ijtimoiy adolat qoidalari va printsiplarining jamiyat hayotidagi o'rni.

1. Adolatsizlikka va zo'ravonlikka asoslangan sotsialistik iqtisodiy tizumdan mulkchilikni turli ko'rinishlari erkin faoliyat ko'rsatadigan tuzumga bir hamla bilan siliqqina va osongina o'tish mumkin emas. Uzoq davom etadigan o'tish jarayonida aholining kam ta'minlangan va nochor qatlamini ijtimoiy himoya qilishni Prezident I.A.Karimov mustaqillikning birinchi kunidan boshlab, iqtisodiy siyosatning muhim tamoyili sifatida o'rtaga tashladi. O'tish davridagi ob'ektiv shart-sharoit taqozasiga ko'ra mamlakatimizda amalga oshiralayotgan aholini kuchli himoyalash siyosati jamiyatning barcha a'zolarini emas, balki aholining kam ta'minlangan moddiy va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qisminigina himoya qilishni ko'zda tutadi.

«Biz – degan edi I.A.Karimov – aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari – pensionerlar nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar, shuningdek, qayd etilgan miqdorda nafaqa oluvchi kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik» Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning X-bob, 45 moddasida, Voyaga otmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir deb, yozib qo'yilgan⁷⁵. Kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish ishi bilan shug'ullanadigan davlat muassasalari, idora va korxonalarning yahlit tizimi

⁷⁵O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008, - B. 10.

yaratiladi. Bular Qaraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi, 12 viloyat, Toshkent shahar, 233 ta tuman va shaharlardagi ijtimoiy ta'minot bo'limlaridir. Bulardan tashqari mamlakatimizda 34 ta qariyalar va nogironlar internat uylari, urush va mehnat faxriylari respublika pansionati, «Oltiariq» va «Tovoqsoy» pansionatlari va boshqa o'nlab muassasalar aholiga ijtimoiy yordam tadbirlarini amalga oshirmoqdalar.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi bilan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunga asosan aholini nafaqaga chiqarishning yagona tartibi joriy etildi. Umumiy taritbda 60 yoshga kirgan va 25 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan erkanlar nafaqada chiqariladi. Ayollar uchun esa bu o'lchov 1999 yil mart oyidan boshlab 54 yosh va 20 yillik mehnat staji qilib belgilandi. Bundan tashqari nogironlik pensiya va boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga beriladigan pensiyalar ham mavjud.

Mazkur pensilarni joriy etish to'lash bilan bog'liq tartib qoidalar 1992 yil 4-fevralda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonunda asoslab berilgan.

Davlat 16 yoshgacha bo'lgan bolalari bor oilalarga 1997 yilda nafaqalar to'lashga 9,6 mlr. so'm ajratdi⁷⁶. 1997 yil sentyabr oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklari berish joriy etildi. Kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalarga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashda qo'yidagi manbalardan foydalanilmoqda: Davlat byudjeti; Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi; Korxona va jamoat tashkilotlari ajratayotgan mablag'lar; «Navro'z» mahalla», «Sog'lom avlod uchun», «Salomatlik va mehr shavqat» kabi xayriya jamg'armalari va boshqalar.

2. 1994 yildan boshlab O'zbekistonning aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutloqo yangi tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, mamlakatimizning kelajagi hisoblanish bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi. endi hamma nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali etkazib beriladigan bo'ldi. Oila asosiy mavqega ega bo'ldi.

⁷⁶Tyurikov V., SHog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y y. – B. 60.

Bunday yondashuv moddiy yordam uchun ajratilayotgan mablag'larni adolatli taqsimlanishiga umuminsoniy qadriyatlarga, milliy anʼanalarga va ruhiyatga mos keladi.

Ijtimoiy kumaklashuvning yangi tizimida farzand to'g'ili bir yo'la beriladigan to'lovlar saqlab qolinishi bilan birga nafaqalar va imtiyozlarning qo'yidagi turi ham amalga oshiriladigan bo'ldi. Jumladan, bola boquvchi onalarga to'lanadagan nafaqaning miqdorini ko'paytiribgina qolmay, uning muddati ham o'zaytirildi. Ilgari bunday yordam bir yarim yillgacha uzaytirildigan bo'lsa endi. Muddat ikki yilgacha uzaytirildi ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham bu nafaqadan foydalanadigan bo'ldilar.

1994 yil 24 avgustda Prezidentning «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra 1994 yil oktyabridan davlat kam daromadli oilalarga faol yordam bera boshladi. 1996 yil 10-dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishini kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida» Farmoni chiqarildi. Unda 1997 yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish yig'inlari orqali yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab eng oz ish haqining 50 foizidan boshlab, 175 foizigacha nafaqa beriladigan bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi nogironlariga O'zbekiston Respublikasida katta imtiyozlar berilgan. Ular shifokorlar retseptlari bo'yicha dorilarni bepul olish huquqiga egadirlar. Nafaqaga chiqishda ular ish davrida o'zlari biriktirib qo'yilgan poliklinikalar tibbiy xizmatidan foydalanaveradilar. Joylardagi ijtimoiy ta'limot organlari urush nogironlariga har yili sanatoriyalar va dam olish uylariga bepul yo'llanmalar berib turishlari kerak. Ularga shuningdek, bepul stomatologik yasama tish – protez (nodir metallardan tashqari) qo'yidirish, tibbiy xulosaga muvofiq boshqa protez-ortopedik buyumlar olish, kreslo-aravachalar bilan ta'minlanish huquqi ham berilgan⁷⁷.

1998 y yilgi ma'lumotlarga qaraganda respublikada 27 mingdan ko'proq yolg'iz qariya bo'lgan. Ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatadigan xodimlar biriktirib qo'yilgan, ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda.

⁷⁷Tyurikov V., SHog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y y. – B. 95.

Mamlakatning 2 mln 340 ming fuqarosi pensiya va moddiy yordam oladi. Bunday to'lovlar miqdori 2000 y-yilda 187,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Faqat 2000 y yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari – mahalla yig'inlari orqali 54,2 mlrd. so'm miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi.

Ushbu ma'lumotlari O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning o'ziga xosligi, ushbu jamiyatda eng avvalo, ijtimoiy-g'oyaning adolat va liberal demokratiya g'oyalari bilan uyg'unlashib ketganligi, aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilish, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan ekanligini ko'rsatadi.

Huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidan jadal odimlayotgan O'zbekiston Respublikasida bundan keyin ham kuchli ijtimoiy siyosat olib borish (Prezident I.A.Karimov tomonidag o'rta tashlangan besh tamoyildan biri⁷⁸) bundan keyin ham davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan bo'lib qolishi haqida shunday degan edi: Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi⁷⁹.

3. Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq adolat tamoyilsariga asoslanmoqda. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muassasalar vujudga kelishi, inson manfaatlariga e'tibor jahon huquqiy andozalari va milliy urf odatlarning uyg'unligida shakllanib borayotganligi mustaqil O'zbekistonda adolat talab va qoidalari tantana qilib borayotganligini belgisidir. «Biz shunchaki demokratik davlat emas, - deydi Prezident I.A.Karimov – balki adolatparvar demokratik davlat qurishga intilayapmiz. Adolatga intilish xalqimiz ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyatdir. Adolatparvarlik – g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi mumkin»⁸⁰.

Xalqimizning bobokaloni Amir Temur aytganidek «Kuch adolatdadir» Adolat qonun-qoidalariga suyanan davlat va jamiyat kuchli bo'lishi muqarrarlighi to'g'risidagi sharqona qarashlar bugungi O'zbekiston siyosatining

⁷⁸Qarang// Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston, 1993 y..

⁷⁹Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999. – B. 128..

⁸⁰ Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y. – B. 6.

muhim asoslaridan birini tashkil etadi, «Inson huquqlari haqida umumjahon Deklaratsiyasi» tamoyillariga javob beradi, chunki: a) demokratik umuminsoniy tamoyillarga suyanadi; b) insonning daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi; v) demokratik huquqlar va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi; g) barchaning qonun oldida tengligi ta`minlanadi⁸¹.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat o'z oldiga qo'yilgan barcha vazifalarni to'la-to'kis bajardi. Respublikada erkin narxga o'tish amalda tugallandi va bu o'tish aholi uchun shok terapiyasiga nisbatan kamroq ijtimoiy larzalar bilan kechdi. Hozirgi vaqtda respublika aholisi ijtimoiy jihatdan ishonchli ravishda himoya qilingan bo'lib, daromadlar miqdori, asosiy iste'mol ne'matlari va xizmatlaridan foydalanish darajasi jihatidan boshqa respublikalarga ancha tenglashib qoldi, ba`zi jihatlardan esa uzib ham ketdi. O'zbekistonda ish haqining va pensiyalarning eng kam miqdori boshqa respublikalarga nisbatan eng yuqori darajalardan birida turibdi⁸².

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat, uning ijtimoiy adolat tamoyillari asosida hayotda tatbiq etilayotganligini har bir O'zbekiston fuqarosi qalban his etib turibdi. Ushbu jarayon respublikamizda siyosiy, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlanishiga, fuqarolarning davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchli yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o'zgarishlar, bozoro munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish choratadbirlari bilan uyg'unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirgina ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin. pirovard maqsad esa O'zbekistonda istiqomat qilayotgan milmanlab oilalarning munosib turmush kechishir uchun sharoit vujudga keltirishdan iboratdir⁸³.

Tayanch iboralar:

Kuchli ijtimoiy himoya, kam ta`minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy adolat, bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash, «Mahalla» xayriya jamg'armasi, ikkinchi jahon urushi nogironlariga imtiyozlar yolg'iz keksalarga e'tibor, huquqiy demokratik davlatda ijtimoiy himoya.

⁸¹Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999. – B. 134.

⁸² O'sha asar – B. 6-7.

⁸³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999. – B. 141.

Savollar:

1. Nima uchun mustaqillikning dastlabki yillaridanoq kuchli ijtimoiy-siyosat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi?
2. Mamalakatimizda aholini ijtimoiy himoyalashda qanday manbalardan foydalanilmoqda?
3. O'zbekistonda aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishning ijtimoiy adolat va demokratiya g'oyalari bilan bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
4. O'zbekistonda aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishning jamiyat hayotidagi o'rni qanday?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008.
6. Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2000 y.
7. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: Sharq, 2000 y.
8. Tyurikov V., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y.
9. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod, Moliya, 2006.

5 – Mavzu: O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGINING DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISH

Reja:

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishning umuminsoniy demokratik jihatlari.
2. Demokratik tamoyillar va O'zbekiston tashqi siyosatning shakllanishi.
3. O'zbekistonning AQSH, Rossiya, Evropa Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatraro hamkorlik.

1. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston milliy manfaatlariga mos keladigan, umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashgan, puxta tashqi siyosiy yo'lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang turar edi. Bu osongina echiladigan vazifalar emas edi. Masalaning murakkabligi shundan iborat ediki, sobiq Ittifoq davrida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan aloqa qilish, tashqi savdoni tashkil etish, markaziy hokimiyat tomonidan olib borilar edi. Respublikalar esa, jumladan O'zbekiston ham tashqi dunyodan ajralgan. to'g'ridan – to'g'ri aloqa qila olmaydigan yopiq mamlakat edi. SHu bois, davlatimiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyatni biladigan kadrlarga ham ega emas edi. Respublikada bunday kadrlar tayyorlovchi birorta oliy o'quv yurti yo'q edi. Vaziyat zudlik bilan, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishni talab etar edi. Prezident I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li»⁸⁴ boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari, tashqi umuminsoniy qoidalari, tashqi siyosatning umuminsoniy demokratik jihatlari nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berildi».

Qisqa vaqt ichida O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyoning 165 ta davlati tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatiladi. Toshkentda 43 ta

⁸⁴Qarang // Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992 y.

xorijiy mamlakatlarning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSH, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. SHuningdek, O'zbekistonda 88 xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlarning 24 huqumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq mamlakatda AQSH, Turkiya, Germaniya, Frantsiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining horish ifodasi va taklifiga ko'ra, 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi. 1993 yil 24 oktyabrda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yil fevral oyida Evropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga (YOHHT)ga a'zo bo'ldi. O'zbekiston 105 ta mamlakatni birlashtirgan qo'shilmaslik harakati a'zosi hisoblanadi. 1992 yil oktyabrda O'zbekiston, oqsoqol Xalqaro tashkilotlardan biri-Parlamentlararo ittifoqning 119-a'zosi bo'ldi⁸⁵. 1993 yilning 29 oktyabrida O'zbekiston BMTning ta'lim, fan madaniyat bilan shug'ullanuvchi YUNESKOga a'zo bo'ldi. 2001 y yilning 14-15 iyun kunlari Xitoyda navbatdagi SHanxay sammiti bo'ldi. Unda Prezident I.A.Karimov ishtirok etdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la a'zoligi to'g'risida bayonot iizolandi. Ushbu munosabat bilan «SHanxay forumi» tashkiloti SHanxay hamkorlik tashkiloti – SHHHT, deb o'zgartirildi.

2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV – bob, 17-moddasida qonunlashtirildi va u jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda⁸⁶. O'zbekistonning xalqaro huquq sub'ekti sifatida belgilaydigan, respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»g iva boshqa

⁸⁵ Qarang // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008 y. – B. 6.

⁸⁶ Tyurikov V., SHog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y. – B. 164..

qonunlar va normativ hujjatlar ishlar jumlasidandir. Bular faol va keng ko'lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib beradi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi. Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyati Milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lgat qo'yildi.

Tashqi siyosatda tinchlik barqarorlik hamkorlik yo'li asos qilib olinadi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari qo'yidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat'iy hamkorlik uchun, ochiqlik umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik: davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham, ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Tashqi aloqalar xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvafaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb, bilamiz. O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kaforlatdir»⁸⁷.

3. O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992 yil 16-martda Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning elchixonasi ochildi.

⁸⁷Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999y. – B. 656-657.

O'zbekistonda 1996 yil boshlarigacha Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ga yaqin o'zbek-amerika qo'shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1996 yil 23-28 iyun kunlarida AQSHda bo'lishi, O'zbekiston va AQSH munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. 2001 y yilda O'zbekistonda AQSH bilan hamokrlikda amalga oshirilayotgan loyihalar soni 70 tadan ortdi. AQSH sarmoyasi bilan respublikamizda barpo etilayotgan qo'shma korxonalar soni 305 taga etdi. 2002 yil 11-14 mart kunlari Prezident I.A.Karimov boshliq davlat delegatsiyasi AQSH Prezidenti J.Bush taqlifiga bundan rasmiy davlat tashrifi bilan AQSHda bo'ldi. Tashrif fkunida «O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida o'zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi deklaratsiya» hamda bir qator muhim hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. 1992 yil 30 mayda I.A.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.El'tsinning 1993 yil mart oyida O'zbekistonga tashrifi paytida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga kelishildi. Rossiyaning yangi prezidenti V.Putin qisqa muddatda ikki marta 1999 yil 10-11 dekabrda va 2000 y yil 18-19 may kunlarida rasmiy tashrif bilan keldi. Ushbu uchrashuvlar chog'ida ikki mamlakat o'rtasida turli maqsadlarga yo'naltirilgan 150 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2000 y yilda 1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda 520 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, Rossiyada esa 250 ga yaqin qo'shma korxona mavjud. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2001 y yil 3-5 may kunlari, 2004-yil aprel oyida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning 2004 yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi. 2004 yil 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. 2009 yilning 28-30 may kunlari Prezident I.A.Karimov Lotin Amerikasi davlatlar ichidagi dastlabki rasmiy safarini Braziliya Federativ respublikasiga amalga oshirib, har tomonlama hamokrlik bitimlar imzolandi.

Tayanch iboralar:

Xalqaro ahvol, sobiq ittifoq davridagi siyosiy tizim, O'zbekiston va BMT, xalqaro tashkilotlar, EHHT, YUNESKO, Tashqi siyosatda demokratik tamoyillar, xalqaro aloqalar, xalqaro munosabatlar, O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari, O'zbekiston va AQSH, Evropa mamlakatlari, O'zbekiston va Rossiya, O'zbekiston va Markaziy Osiyo.

Savollar:

1. O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi mamlakatimiz uchun qanday ahamiyatga ega?
2. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati asosiy tamoyillarining xususiyati nimada?
3. O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama hamokrlikni rivojlantirishi har ikkala davlat uchun qanday ahamiyatga ega?
4. O'zbekistonning Janubiy Koreya respublikasi bilan o'zaro har tomonlama hamokrligi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.: O'zbekiston, 1998 y.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: O'zbekiston, 2002.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999. 134 b.
5. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008.
7. Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2000 y.
8. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod, Moliya, 2006.
9. Tyurikov V., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y. 95 b.

Mavzularga doir testlar:

1. Politologiya so'zi lotincha qanday ma'no beradi?

- A. Davlatni boshqarish yoki ta'limot.
- B. Shaharlarni nazorat qilish.
- S. Yuqori tabaqalar hukmronligi.
- D. Xalqni itoatda tutib turish.

2. «Inson o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudotdir» degan so'z kimga tegishli?

- A. Konfutsiy
- B. Platon
- S. Farobiy
- D. Aristotel'

3. Oligarxik boshqaruv deganda nimani tushunasiz?

- A. Boshqaruvda xotin-qizlar ishtiroki
- B. Joylarda o'z-o'zini boshqarish
- S. Ozchilik hukmronligi
- D. Jamoaviy hukmronlik

4. Siyosiy hokimiyatning qaysi bug'ini majburlov kuchiga ega?

- A. Siyosiy partiyalar hokimiyati
- B. Davlat hokimiyati
- S. Nodavlat tashkilotlar
- D. Ijtimoiy-siyosiy harakatlar

5. Sotsial so'zi qanday ma'no beradi?

- A. Jamoaviy
- B. Guruh
- S. Ijtimoiy
- D. Ma'naviy

6. 1965 yilda nashr etilgan «Siyosiy madaniyat va siyosiy taraqqiyot asari mualliflarini aniqlang»?

- A. I.Gerder va X.Fayer
- B. X. Fayer va G.Almond.
- S. L.Pay va S.Verba
- D. G.Ashand va I.Gerder

7. Quyidagi qaysi atama lotincha «saqlash» «qo'riqlash» degan ma`noni anglatadi?

- A. Konservatizm
- B. Liberalizm
- S. Identitarizm
- D. Kosmopolotizm

8. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari qaysi me`yoriy hujjatda aniq belgilab berilgan?

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasida
- B. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida
- S. Prezident I.A.Karimov asarlarida
- D. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligi Byulletenida

9. Terrorizm so'zi qaysi tildan «qurqitish», «dahshat» degan ma`noni anglatadi?

- A. Ital'yan
- B. Yunon
- S. Lotin
- D. Ingliz

10. Dunyoda etishtirayotgan giyohvandlik moddasini necha foizi Afg'onistonda etishtiriladi?

- A. 90%
- B. 55%
- S. 45%
- D. 75%

11. Prezident I.A.Karimovning 1992 yilda nashr etilgan daslatbki asarini aniqlang?

- A. Yuksak ma`naviyat engilmas kuch
- B. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda
- S. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li
- D. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li

12. O'tish davrining qaysi yo'li uzoq tarixiy bosqichda amalga oshiriladi?

- A. Evolyutsion
- B. Klassik
- S. Inqilobiy
- D. Konservativ

13. O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning qaysi turi ustvor hisoblanadi?

- A. Liberal demokratiya
- B. Sotsial demokratiya
- S. Konservativ demokratiya
- D. Sharqona demokratiya

14. Prezident I.A.Karimovning qaysi asarida O'zbekiston kelajagini belgilovchi 5 ta tamoyil ko'rsatilgan?

- A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li
- B. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li
- S. O'zbekiston XXI asr intilmoqda
- D. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat

15. Qaysi mamlakat birinchi bo'lib O'zbekistonda o'z elchixonasini ochgan?

- A. Turkiya
- B. Rossiya
- S. AQSH
- D. J.Koreya

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2008 y.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li - T.:O'zbekiston,1992 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat – T.: O'zbekiston, 1992 y.
4. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li, - T.: O'zbekiston , 1993 y.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, - T.: O'zbekiston, 1995 y.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida, - T.: O'zbekiston , 1995 y.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild, - T.: O'zbekiston , 1996 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, - T.: O'zbekiston , 1997 y.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, - T.: O'zbekiston , 1998 y y.
10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, - T.: O'zbekiston , 1999 y.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilgmoqda, - T.: O'zbekiston , 1999 y.
12. Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz, - T.: O'zbekiston , 2000 y y.
13. Karimov I.A. Milliy istiqlo mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir, - T.: O'zbekiston , 2000 y y.
14. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li, 11-jild, T.: O'zbekiston , 2003 y.
15. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, Toshkent, 2011 y.
16. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 y.
17. Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov – yangi O'zbekiston Prezidenti. – Vena, 1996, T.:. O'zbekiston, 1996 y.
18. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.:.O'zbekitson, 2001 y.
19. Ramazonov I. Politologiya. (o'quv qo'llanma) Toshkent, 1997 y.
20. Politologiya. (o'quv qo'llanma) Toshkent, 2002 y.
21. Politologiya fanidan ma'ruza matnlari. Samarqand, 2000 y.

22. Mirzaev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2000 y.
23. Azizxo'jaev A. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2001 y.
24. Abdullaev M. va boshqalar. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug'at. T.: SHarq, 2000 y.
25. Odilqoriev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: SHarq, 2002 y.
26. Mamashokirov S., Tog'ayev SH. erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T.: Ma'naviyat, 2007 y.
27. Tyurikov V., SHog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T.: O'qituvchi, 1998 y.
28. Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T.: Iqtisod Moliya, 2006 y.
29. Jamolov L., Axmedov A. Falsafa fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va tayyorlash uchun uslubiy ko'rsatma. Samarqand, 2007 y.
30. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T.: O'zbekiston, 2000 y.
31. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatning shakllanish. Toshkent, 2003 y.
32. Azizxo'jaev A. Davlatchilik ma'naviyat. Toshkent, 1997 y.
33. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent.
34. Otamurodov S. va boshqalar. Politologiya, Toshkent, 1998 y.
35. Odilqoriev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik, Toshkent, 2009 y.

Internet manbalari

1. <http://www.ziynet.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. Rossiya kutubxonasi. <http://www.libs.ru>
4. Rossiya davlat kutubxonasi. <http://www.rsl.ru>.

O'qitishning uslubiy qoidalari

«Bumerang» texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materiallarini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijobiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarish, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolda bo'lishi, kerakligi ballni to'plashga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- jamoa bilan ishlash mahorati
- muomalalik
- xushfe'llik
- ko'nikuvchanlik
- o'zgalar fikriga hurmat
- faollik
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish
- ishga ijodiy yondashish
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish
- o'zini xolis baholash

Asosiy tushunchalar qo'yidagilar:

Ochiq savollar-bu savollar muomala so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan «ha» yoki «yo'q» tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu uziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoiyb imkoniyatdir.

Ko'ndalang suroq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi munozaraga kirishilmaydi.

«Skarbey» texnologiyasi

«Skarbey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarga fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, urganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqlarni aniqlashga imkon beradi.

«Skarbey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi.

- boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»)

- mavzuni o'rganish jarayonida, uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

- oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarbey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatni fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkuro texnologiyani ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engilashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarbey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- o'zgalar fikriga hurmat

- jamoa bilan ishlash mahorati

- faollik

- xushmuomalalik

- ishga ijodiy yondoshish

- imkoniyatlarni ko'rsatish ehtiyoji

- o'z qobiliyati va imkoniyatini tekshirishga yordam beradi.

- «men»ligini ifodalashga imkon beradi.

- o'z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg'otadi

Asosiy tushunchalari qo'yidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

Fikrlash hujumi

Yalpi «Fikrlar hujumi» metodi J.Donal'd Filips tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi, va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro «Fikrlar hujumi» o'tkazadi. SHundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar hamda ularga eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi⁸⁸.

⁸⁸ Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent. – B. 9-26.